

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti dekani

_____ dots. G'.Qodirov

“_____” _____ 2013 y

5140500 - “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

**“DUNYO XALQLARINING TARKIBIY TUZULMALARI VA
UNING GEOGRAFIK MANZARASI” mavzusida**
bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Abdurashidova Oltinoy.
Ilmiy rahbar: k. o'qit. G'apporov A.

**BMI “Geografiya va uni o'qitish metodikasi”
kafedrasi yig'ilishining _____ 2013 y.
№__ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.**

Kafedra mudiri: g.f.n. Q.Hakimov

JIZZAX-2013

MAVZU: DUNYO XALQLARINING TARKIBIY TUZILMALARI VA ULARNING GEOGRAFIK MANZARASI

MUNDARIJA

Kirish.....	
1 bob. Dunyo aholisining geografik tavsifi.....	
1.1 Dunyo aholisining etnodemografik tavsifi.....	
1.2 Dunyo aholisning hududiy joylashuvi.....	
2 bob. Dunyo aholisining tarkibiy tuzilmalari va geografiyasi.....	
2.1 Dunyo xalqlarining tarkibiy tuzilmalari.....	
2.2 Xalqlarning hududiy joylashuvi va tarkibiy tuzilmalarining o'zaro bog'liqligi.....	
3 bob. Xalqlarning hududiy joylashuvi va tarkibiga ta'sir etuvchi omillar.....	
3.1 Xalqlarning hududiy joylashuvi bilan bog'liq muommolar.....	
3.2 Dunyodagi demografik jarayonlar va muommolar	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar	

KIRISH

Insoniyat paydo bo'libdiki, jamoa bo'lib yashab kelgan. Tarixiy taraqqiyotning yuksalishi davomida jamoalar kengayib, turli xil etnografik birliklarning rivojlanishi natijasida turli xil xalqlar paydo bo'lgan. Ma'lumki, bundan 10-15 ming yillar muqaddam yer yuzida aholi juda kam bo'lgan va sekinlik bilan ko'paygan. O'sha vaqtlarda inson tabiatga qaram bo'lgan, odamlar ovchilik va oziq yig'ish bilan kun kechirganlar. Keyinchalik chorvachilik va dexqonchilikning rivojlanib borishi bilan aholining o'sishi ham birmuncha tezlashdi. Hozirgi vaqtda aholi sonining o'sishi ayrim qitalar, davlatlar o'rtasida va hatto yirik mamlakatlarning ichida ham farq qiladi. Bu juda ko'p omillarga bog'liq, maslan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, farovonlik darajasi kabi.

Hozirda yer yuzida 7 miliyadga yaqin odam yashaydi. Ular turli xalqlarga mansub. Har birining soni 100 miliondan ortiq xalqlar bor, masalan, xitoylar, yaponlar, ruslar, bengallar. Nemislar, italiyanlar, fransuzlar esa bir necha miliondan iborat. Shuningdek, kam sonli xalqlar ham bor. Bular orasida eng kichigi – Fillipin orolida yashovchi TASADAY qabilasi bo'lsa kerak. Bu qabila 50 kishiga ham yetmaydi. Ular tog' yonbag'rlarida yashaydilar, ovchilik va yovvoyi o'simlik terish bilan kun kechiradilar, yaqinga qadar ular o'zlaridan boshqa odamlar borligini bilmaganlar ham. Yer yuzida hammasi bo'lib, 2 mingga yaqin katta va kichik xalq mavjud. Ular turli tillarda so'zlashadilar, ularning urf-odatları ham turlicha. Xalqlar tashqi ko'rinishi bilan ham farqlanadilar. Masalan, yaponlar dag'al qora sochli va bodomko'z, barcha bengallar qorachadan kelgan, tropik Afrikada yashovchi xalqlar esa qora tanli, sochlari jingalak bo'ladi.

Har bir xalq o'zining maxsus tilida so'zlashadi. Biroq bundan mustasno holatlar ham mavjud. Maslan, inglizlar va amerikaliklar bir xilda – inglizcha, nemischa va avstryaliklar esa nemis tilida, ispanlar hamda Janubiy va Markaziy Amerikaning ko'pchilik xalqlari ispancha so'zlashadilar. Lekin ular turli xalqlardir: ularning har biri o'z tarixi, turmush tarzi va urf-odatlari ega. Xalqlar o'rtasida tafovutlar ko'p, lekin ularning o'xshashlik va umumiylik tomonlari ham mavjud. Xalqlarning hammasi bir bo'lib insoniyatni tashkil etadi.

Mana shu insoniyatning tarkibiy tuzilmalari va ularning geografik manzarasini ilmiy asosda o'rganish zamonaviy geografiyaning dolzarb mavzularidan biridir. Shu sababli mazkur mavzuni o'rganish va demo-statik dalillar bilan asoslash men uchun judayam qiziq bo'lganligi uchun shu mavzuda BMI yozishga qaror qildim. Mavzuni Kirish qismi va uch bob:

1 bob. Dunyo aholisining geografik tavsifi

2 bob. Dunyo aholisining tarkibiy tuzilmalari va geografiyasi

3 bob. Xalqlarning hududiy joylashuvi va tarkibiga ta'sir etuvchi omillar kabi bo'limlarga bo'lib oldim. Har bir bobda ikkitadan band ko'rsatilgan bo'lib, ularning har biri mavzuni ilmiy asosda ochib berishga hizmat qiladi.

Aholi moddiy ne'matlarining asosiy ishlab chiqaruvchisi va ayni vaqtda uning asosiy iste'molchisidir. Demografik jarayonlar, ya'ni aholinini ko'payishi, bu o'sishning xususiyatlari va surati, tug'ilishi, o'lim, nikohda bo'lish darajasining o'zgarishi, avlodlar almashinuvi, umr davomiyligi, jinsiy balog'at va oila tarkibi kabilar butun jamiyat rivojlanishi bilan o'zaro jips va uzviy aloqadordir.

Ular jamiyat rivojlanishiga tobe bo'lib, unga ta'sir o'tkazadi, u yoki bu davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kechishini osonlashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham aholi sonining o'zgarishiga aloqador muommolar, uning hududiy joylashuvi va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri ko'plab olimlar, demograflar, iqtisodchilar, geograflar, faylasflar, xuquqshunoslar, tibbiyotchilar va boshqalar diqqatini doimo jalb etib keladi. Aholi sonining o'sib borishi, mehnat resurslaridan foydalanish, aholini oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlarini qondirish va hakazo muommolar aholi geografiyasi va boshqa tarmoqlarning eng asosiy muommolaridir. Aholini tadqiq etish va jamiyat rivojlanishidagi ro'lini ta'riflash, shuningdek jamiyat taraqqiyotida turlicha o'ringa ega bo'lgan aholi qatlamlarini o'rganinishda juda ko'plab ish qilingan va nazariyalar yaratilgan. Bunday nazariyalar va qonuniyatlar ishlab chiqarish negizida aholining rivojlanishini tushuntirib berishga qaratilgan bo'lib, insoniyat kelajagi va taraqqiyotini boshqarish va

bashorat qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuni ta'kidlash joizki, aholining rivojlanishi haqidagi nazariyalar vaqt nuqtai nazardan nisbiydir va bu nazariyalarning qanchalik hayotiy ekanligini vaqt ko'rsatadi.

Aholi va uning faol qismi bo'lgan mehnat resurslari makroiqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Makroiqtisodiyot aholi va mehnat resurslarining ijtimoiy iqtisodiy yo'nalishlarini tadqiq etish orqali uni samarali boshqarish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishni maqsad qilib oladi. Chunki, mehnat resurslari va uning faol qismi bo'lgan ishchi kuchi ishlab chiqaruvchi kuchlarning eng asosiy qismidir. Shu bilan birga mehnat resurslari bozor iqtisodiyoti munosabatining tarkibiy elementlaridir. Shu sababli mehnat resurslarini har tamonlama o'rganib, uni iqtisodiy geografik jihatdan baholash maqsadga muvofiq.

1 BOB. DUNYO AHOLISINING GEOGRAFIK TAVSIFI

1.1 Dunyo aholisining etnodemografik tavsifi

Kishilarning qadim zamonlarda vujudga kelgan umumiyliklari etnik birliklardir. Etnik birliklarining ibtidoiy jamoa tuzumidan to hozirgi davrgacha uchraydigan kateogriyalari asosan, urug', qabila, elat, millatlardan iboratdir.

Kishilarning eng qadimiy etnik birligi - urug' kategoriyasidir. Bu kategoriya asosan ibtidoiy jamoa tuzumida vujudga kelib ana shu formatsiyaning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy yacheykasi bo'lgan va u odamlarning qon qarindoshligiga asoslangan edi. Urug'chilikni asosiy belgilari. 1) urug' a'zolarining bir-biri bilan qon-qardoshligi. 2) urug' a'zolari ho'jalik faoliyatining birligi. 3) ijtimoiy hayotning, turmushning va endi vujudga kelayotgan madaniyatning birligi.

Odamlar etnik birligining ikkinchi yuqoriroq bosqichi qabiladir. Urug'larning qabilalarga birlashuvi ham kishilarning ibtidoiy jamoa tuzumiga xos umumiyligidir. Rivojlanayotgan qabilalarning odatda, o'z tili yoki shevasi va alohida territoriyasi bo'lgan, mahsus kengash tomonidan boshqarilgan.

Urug' va qabila kategoriyalaridan keyin elat kategorisi vujudga kelgan. Elat - urug' va qabila birliklariga nisbatan yuqoriroq bosqichdir. Elat birligi asosan feodalizm jamiyati davrida, ba'zan esa quldorlik davridayoq tashkil topa boshlagan.

Elat kishilarning millatdan oldingi tarixiy birligidir. Elatlarning o'z nomlari, tili, umumiy madaniyati va psixik xususiyatlari tarkib topa boradi. Elatlar territorial umumiylikka ega bo'lib, ma'lum darajada iqtisodiy aloqalar qila boshlaydi.

Millat ma'lum hududda yashovchi odamlarning sosial-etnik birligi bo'lib, feodalizm kapitalizmga o'tish davrida tashkil topa boshlaydi va kishilar umumiyligining kapitalizmga xos formasidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan etnik birlik kategoriyalaridan millat shu bilan farqlanadiki, millatlarda territorial birlik, iqtisodiy va madaniy aloqalar mustahkam o'rin oladi, yagona milliy til tashkil topadi, milliy ong rivojangan bo'ladi.

Ammo kapitalizm sharoitida barcha xalqlar ham alohida millat sifatida tashkil topadi deb bo'lmaydi. Xalqlar o'rtasida tenglikning yo'qligi, ko'p sonli va kuchli xalqlarning ekspluatator sinflar tomonidan mayda xalqlarning shafqatsiz ekspluatasiya qilinishi, madaniyat va iqtisodiyotining rivojlanishi yo'lida sun'iy g'ovlarning vujudga keltirilishi ularning millat sifatida tashkil topishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Millatlar rivojlanishidagi bu ikki tendensiya o'rtasidagi ziddiyat antagonistik formaga kiradi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning burjuaziyasi boshqalarning territorisini bosib oladi, boshqa xalqlarni asoratga olib boradi. Shu narsani qayd qilish kerakki, kishilar etnik umumiyligining milliy bosqichi, asosan, kapitalizmga xos bo'lgan holda, juda ko'p xalqlar sotsialistik revolyusiya g'alabasi natijasida kapitalistik taraqqiyot bosqichini o'tamasdan ham sotsialistik millat bo'lib jipslashishlari mumkin. Millatlarning asosiy belgi va xususiyatlarining bu ta'rifi kapitalistik davlatlarga ham, sotsialistik millatlarga ham xosdir. Chunki, millatlar sotsialistik ishlab chiqarish usuliga asoslanadilar va ularning manfaatlari, yagona ma'naviy qiyofasining belgilari umumiydir. Millatlarning yanada rivojlanishi ularning ixtiyoriy ravishda va teng huquqlik asosida hamkorlik qilishi va bir-biriga yordam berishi tufayli amalga oshiriladiki, ular kommunistik jamiyatga, kelajakda millatlarning qo'shilib ketishini tayyorlab boradi.

Sotsializm davrida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotini milliylashtirish tendensiyasi kuchayib boradi. Sotsializm xalqlarni jipslashtiradi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi, hamkorlik qilayotgan xalqlarda tobora ko'proq mushtarak alomatlarini yuzaga keltiradi, milliy alomatlarga nisbatan kengroq bo'lgan yangi aloqalarga ehtiyoj paydo qiladi.

Kommunizmning butun dunyo miqyosida g'alaba qilishi millatlarning bir-biri bilan qo'shilib ketishi uchun barcha zarur moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarini yaratib beradi. Butun sayyora miqyosida yagona reja asosida rivojlanuvchi yagona kommunistik xo'jalik asta-sekin tashkil topib, kishilarning ilgari misli ko'rilmagan iqtisodiy birligini ta'minlaydi. Barcha kishilarda

mushtarak til, aloqaning yagona vositasi yuzaga keladi, insoniyat yagona jamoasi, yagona qardoshlarcha birlikni, antagonizmlardan holi bo'lgan birlikni tashkil etadi.

Xalqlar geografiyasida etnik jarayonlar, turli xalqlarning madaniyati, territorial joylanishi, bir-biri bilan o'zaro aralashuvi, mehnat xalqalari kabi masalalar muhim ahamiyatga ega. Etnografiya mamlakatlar va rayonlar aholisining etnik tarkibi xalqlarning hududiy munosabatlarini, turli etnik guruhlarining ilgarigi davrlarda va hozirgi territorial yashash formalarini o'rganadi.

Etnografiya dunyo aholisining tarkibi va uning butun sayyora bo'yicha hamda uning ayrim rayonlarida joylashuvini etnik aspektda o'rganadi. Shuning uchun ham dunyo aholisining etnodemografik xususiyatlarini aniqlashda etnografiya to'g'risida qisqacha to'htalib o'tgan ma'qulroq deb hisoblayman. Turli xalqlar va millatlarning mehnat malakasini o'rganish, undan foydalanish esa ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Etnografiya ayrim xalqlarning etnogenezi va hozirgi zamon etnik jarayonlarini ham o'rganadi va kuzatadi. Turli irq va millatga mansub bo'lgan xalqlar vujudga kelganligini ko'rib o'tdik. Aholining etnik tarkibini har tomonlama geografik o'rganish juda ko'p demografik jarayonlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi. Misol uchun aholining takror barpo qilinishini olaylik.

Aholining milliy tarkibi va etnik jarayonlarini geografik o'rganishning ahamiyati faqat bu bilan cheklanmaydi, albatta. Iqtisodiy geografiyaning asosiy predmeti bo'lgan ijtimoiy ishlab chiqarishning hududiy joylashuvi, uning turli mamlakatlarda va rayonlarda rivojlanish xususiyatlari faqat iqtisodiy sharoitlargagina emas, balki tabiiy - geografik hamda ijtimoiy siyosiy sharoitlarga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Buning uchun ham aholi milliy tarkibi, milliy munosabatlarining ishlab chiqarishga ta'siri iqtisodiy geografiyada muhim ahamiyatga ega.

Hudud bilan xo'jalikning ajralmas birligi, millatlarning hududiy va xo'jalik umumiyliigi har bir millatga xos iqtisodiy umumiylikning asoslarini geografik analiz qilishni ayniqsa muhim va zarur qilib qo'yadi.

Bir necha ming yillar mobaynida o'limning juda yuqori va aholi o'sish suratlarning past bo'lishligi o'zining asosli sabablarga egadir. Dastavval, bu – moddiy va sanitar–gigienik shart-sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, qolaversa, vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat , vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi bilan bog'langandir. Yer sharida bunday ofatlar 200-400, 1200-1300, 1600-1650- yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi. 1300-1400-yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida yer yuzasi aholi sonining $\frac{1}{4}$ qismi nobud bo'ldi. Aholi ko'rsatkichlariga ohiri ko'rinmayotgan urushlar ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar 18-asrda 5.2 mln, 19-asrda 5.5 mln, 20-asrda esa deyarli 50 mln kishining yostig'ini quritdi.

19-asrgacha bo'lgan davrda demografik jarayonlarda sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi. Undan keyingi davrlarda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish davriga hos jarayonlar boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarining keskin o'zgarishi, turmushning keskin yahshilanishi, aholining yosh tarkibidagi siljishlar va boshqa omillar bilan bog'langandir. Demograf olimlar demografik o'tish davri 4 ta ketma-ket keluvchi bosqichni o'z ichiga olishligini ilmiy asoslab berganlar.

BIRINCHI BOSQICH uchun tug'ilishning yuqori darajada saqlanishi va o'limning keskin qisqarishi natijasida vujudga keluvchi juda yuqori darajadagi tabiiy o'sish hosdir.

IKKINCHI BOSQICH ko'p bolali oiladan kam bolali oilaga o'tish, o'limning qisqarishi, tug'ilishning esa undan ham ko'p miqyosda qisqarishi natijasida tabiiy o'sishning kamayishi bilan ifodalanadi.

UCHUNCHI BOSQICHDA, avvalambor, aholi ichida qariyalar sonining o'sishi hamda tug'ilishning asta sekin pasayishi natijasida umumiy o'limning nisbiy darajasi bir muncha ko'tariladi. Mazkur bosqichda aholi soni juda oz miqdorda. Va jadal sur'atlarda o'sadi yoki qisqaradi (depopulatsiya jarayoni).

TO'RTINCHI BOSQICHDA tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tenglashadi, aholi sonining tabiiy-umumiy o'sishi umuman barham topadi.

Demografik o'tish davri, dastavval, Yevropada 18-asrda boshlandi. Shunda tabiiy o'sish koefisenti 20-30 promillega teng bo'ldi. Buni haqiqatdan ham demografik inqilob deb atash mumkin, chunki 10-20 yillar oldin atiga 5-10 promillega teng bo'lgan tabiiy o'sish koeffitsienti qisqa vaqt ichida 2-3 marta oshdi. Ushbu jarayon Yevropada 100-150 yil davom etdi. Undan keyingi davrda Yevropa mamlakatlari demografik o'tishning uchunchi bosqichida bo'ldilar. Binobarin, Germaniy, Avstrya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengrya. Niderlandiyada aholining oddiy tabiiy-takrorl barpo etilishi ayrim yillarda ta'minlanmayapti, ya'ni o'lganlar soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'proq bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tish jarayonining birinchi bosqichidan o'tmoqda.

AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari ikkinchi bosqichni boshdan kechirmoqdalar. Xitoy va boshqa mamlakatlar ushbu ikkinchi bosqichga o'tish arafasida turibdi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo mamlakatlarida birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish uchun zamin tayyolandi.

Dunyo aholisi sonida so'ngi salkam 60 yil ichida bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot 1- jadvalda keltirilgan.

Ayrim hududlar	1950	1960	1970	1980	1990	1995	2001	2008	2025*
Butun dunyo	2516	3019	3694	4433	5246	5702	6134	6678	8312
Shu jumladan:									
Osiyo (Rossiyasiz)	1399	1702	2147	2623	3123	3451	3721	4040	4439
Shundan:									
G'arbiy Osiyo	50	66	86	112	145	168	192	320	329
O'rta va Janubiy Osiyo	496	619	787	972	1215	1355	1507	1582	2138
Janubiy-shaqiy Osiyo	182	226	288	356	439	485	530	582	704
Sharqiy osiyo	671	791	986	1183	1324	1442	1492	1556	1768
Rossiya	113	119	130	138	148	147	148	141	153

Yevropa(Rossiyasiz)	436	487	527	556	578	581	82	587	590
Shundan:									
Shimoliy Yevropa	78	82	87	89	91	94	95	90	99
G'arbiy Yevropa	133	154	166	173	180	181	183	187	184
Sharqiy Yevropa	116	133	146	155	162	162	159	165	167
Janubiy Yevropa	109	118	128	139	145	144	145	145	139
Afrika	224	280	361	481	645	720	813	1002	1510
Shundan:									
Shimoliy Afrika	52	65	83	109	140	162	178	214	279
G'arbiy Afrika	65	81	106	144	198	199	230	285	467
Sharqiy Afrika	63	80	106	142	196	226	257	332	491
Markaziy Afrika	27	33	40	52	69	83	98	114	191
Janubiy Afrika	17	21	26	33	42	50	50	57	83
Amerika	331	415	510	612	726	774	844	906	1081
Shimoliy Amerika	166	199	227	252	275	293	317	337	375
Markaziy Amerika	37	50	68	92	119	126	138	151	196
Janubiy Amerika	111	146	190	239	297	319	251	383	460
Karib dengizi havzasi hududlari	17	20	25	29	35	36	38	40	50
Avstraliya va Okeaniya	3	16	19	23	26	28	31	35	39

Dunyo aholisi anashu davr ichida 2.6 martaga o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich Osiyo (2.9) va Afrika (4.5) hos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Yevropada 1.3 martaga teng bo'ldi. So'ngi yillarda yer yuzasi aholisining mutlaq soni yiliga o'rtacha 80-90 mln kishiga oshmoqda. Afrikada, Markaziy va Janubiy Osiyoda, Markaziy Afrikada aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi kuzatilmoqda. Shu vaqtning o'zida Yevropaning ayrim regionlarida aholi soni juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti.

Aholi dinamikasidagi farqlar mamlakatlarda mavjud aholi soni va ular egallagan o'rinlarda o'z aksinii topmoqda. Dunyoda aholisining soni bo'yicha yetakchi 25 mamlakat aniqlanib, ular gallagan o'rinlarda 1985-2008 yillarda bo'lib o'tgan o'zgarishlarning tahlili quydagi xulosalarga olib keldi:

- ana shu yillarda va 2025 yillargacha bo'lgan davrda birinchi to'rtlik mamlakat xalqlarining tarkibi o'zgarmaydi.(Xitoy, Xindiston, AQSh, Indoneziya);

- mamlakatlar aholisining sonida farq kamaymoqda (birinchi mamlakatda 25 mamlakatga nisbatan aholi soni 28 marotaba kam bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2008-yilda 26 marotabaga teng bo'ldi);

- ushbu mamlakatlarning asosiy qismi Osiyoga (1985-yilda 11 ta, 2008-yilda 12 ta) to'g'ri keladi. Yevropada 1985-yilda 6 ta, 2008-yilda 5 ta shunday mamlakat bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar Amerika bo'yicha tegishli tarzda 3 va 3 ga, Afrikada esa 3 va 4 ga tengdir. Ikki Yevrosiyo mamlakati: Rossiya va Turkiya alohida guruxga kiritilgan.

Dunyo va uning qitalari, materiklari hamda ayrim regionlari bo'yicha aholi tabiiyharakatini ifodalovchi koeffisientlar 6-jadvalda berilgan. Dunyoda yuqori darajadgi tug'ilish koeffitsientlari Afrika materigiga, regionlar ichida Afrikaning barcha hududlariga hamda Markaziy Amerika, Janubiy va Janubiy- g'arbiy Osiyo regionlariga, past darajadagi tug'ilish koeffitsientlari esa Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniyaga hosdir. O'lim koeffitsientininig yuqori ko'rsatkichlari Afrika va Yevropada, Markaziy va Janubiy Osiyo regionlarida kuzatilmoqda. Tabiiy o'sish Afrika, Markaziy Amerika, Janubiy-g'arbiy Osiyo hamda Markaziy va Janubiy Osiyoda yuqori koeffitsientlarga ega. Ushbu ko'rsatkich Yevropada 0-0.1 ga, Rossiyada esa minus 2-3 promillega teng. Rossiyada immigratsiya katta miqdorga ega bo'lmaganda depopulatsiya jarayoni, ya'ni aholi sonining qisqarishi undan ham sezilarli bo'lardi.

Aholi soni va uning tarkibiga go'daklar o'limi ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yer sharida 2003 yilda jami 8331 ming bola bir yoshga yetmasdan o'lganligi qayd etildi. Shundan 1310 mingi Hindistonga, 708 mingi Xitoyga to'g'ri keladi. Pokiston.bangladesh, Indoneziya, KXDR, Braziliya, Nigeriya, Efiopiya kabi

mamlakatlarda hozirgi vaqtda yiliga 200-500 ming bola bir yoshga yetmasdan o'lmoqda. Bolalar o'limi koefitsienti Afg'oniston, Angola, Burkina-faso, Burundi, KDR, Mali, Mozambik, Niger, Nigeriya, Ruanda, Sero-Leone, Chad kabi mamlakatlarda 200 dan yuqori, 32ta mamlakatda esa 100-200 promillega boradi.

2- jadval

Qit'a, materik va mintaqalar	Tug'ilish koefitsienti	O'lim koef.	Tabiiy o'sish koef	Go'daklar o'limi koef. (5 yoshgacha bo'lgan 1000 ta bolaga)	O'rtacha umr davri	
					Erkaklar	Ayollar
Butun Dunyo	22	9	13	72	65	69
Afrika	35	13	22	122	52	54
Amerika, o'rtacha ko'rsatkich	22	8	14	26	72	77
Shimoliy Amerika	20	9	11	7	76	82
Markaziy Amerika	23	7	16	26	70	75
Janubiy Amerika	22	8	14	29	68	73
Karib Havzasi	22	8	14	28	68	72
Osiyo, o'rtacha ko'rsatkich	23	9	14	68	65	68
Janubiy-g'arbiy Osiyo	31	8	23	39	67	70
O'rta va Janubiy Osiyo	27	10	17	93	61	62
Janubiy-sharqiy Osiyo	26	8	18	57	63	66

Sharqiy Osiyo	17	6	11	31	70	74
Rossiya	10	15	-5	16	59	72
Avstraliya va Okeaniya	18	8	10	7	74	77
Yevropa	11	10	11	7	75	81

Bolalar o'limi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan teskari aloqaga ega. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar o'limi koefisienti 3 (Shvetsiya)dan 8 promillegacha (AQSh) o'zgaradi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyati beqaror, iqtisodiy qoloq bo'lgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich, odatda, 100 dan ortiq, ayrim hollarda 200dan ham yuqori darajaga (Nigeriya-253, Serra-Leone-270) egaligi bilan ajralib turadi.

Yer shari aholisining o'rtacha umr davri 2008-yilda 67 yoshga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Shvetsiya, Shveysariya...(jami 29 davlat) 78-82 yoshni,qoloq mamlakatlarda (80dan ortiq) 39-59 yoshni tashkil etadi. O'rtacha umr davrining eng yuqori ko'rsatkichlari Yaponiyaga (82 yosh) hamda Shvetsiya, Shveysariya va Islandiyaga (80 yosh), Avstraliya, Kanada, Avstrya, Isroil, Norvegiya va Fransiya (79 yosh), eng past ko'rsatkichlar esa MAR, Zambiya, Malavi, Mozambik, Serra-Leone, Zimbabve (37-43 yosh) kabi mamlakatlariga xosdir.

3-jadval

Yil	Aholi soni, mln kishi	Davr ichida o'sish mln.kishi	O'rtacha yillik o'sish mln.kishi
1950	2515		
1960	3091	504	50
1970	3698	679	68
1980	4450	752	75
1990	5292	842	84
2001	6134	959	96

2008	6678	544	77
------	------	-----	----

Tarixiy manbalar Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistonda o'rtacha umr ko'rish davri atigi 25 yosh bo'lganligini ta'kkidlaydi. O'rta asrlarda bu ko'rsatkich taxminan 30 yoshgacha ko'tarildi. Mana shu o'rtacha ko'rsatkichlar umr ko'rish davri yuqori bo'lgan kishilar mavjudligini inkor etmaydi, Masalan: Yuliy Sezar o'ldirilganda 60 yoshdan o'tgan edi. Aflotun 81 yoshida o'tgan edi.

Umr davrini ko'rsatuvchi umumiy yo'nalishning mavjudligiga qaramasdan ko'rsatkichlar orasida ancha farqlar bor. Bu ko'rsatkich yevropa bilan Afrika o'rtasida 1950- yilda 27 yoshni tashkil qilgan. Dunyo miqyosida o'rtacha umr ko'rish davri deyarli 60 yil ichida 18 yoshga oshdi. Bu ko'rsatkich Osiyoda 26 yoshga, Afrikada qariyb 29 yoshga, Yevropada esa 14 yoshga teng bo'ldi. Shunga qaramasdan, ayrim qit'alar va regionlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi farq hanuzgacha kattaligicha qolmoqda.

1.2 Dunyo aholisining hududiy joylashuvi

Yer kurrasida aholi juda notekis joylashgan. Butun aholining 70 % iga yaqini quruqlikning 7 % ida yashaydi. Butun quruqlikning (149 mln km^2) 15 % ida esa ($22,4 \text{ mln km}^2$) aholi doimiy yashamaydi. Bunday joylarga: Grenlandiya oroli (orolning janubiy sohillari bundan mustasno), Kanada-Arktika arxipelagining shimoli, Sahroi Kabir, Rub-el-Xoli, Katta Qum va Viktoriya kabi qumli cho'l massivlarining ayrim qismlari, Antarktida materigi va baland tog'larning yuqori qismlari kiradi.

Jahonda aholi soni eng kam bo'lgan mamlakatlar:

Vatikan 1000 kishi

Tuvalu 10 000 kishi

Nauru 11 000 kishi (2007 y).

Aholining joylashuvi (kichik qishloqdan ovul, to murakkab shahar va qishloqlar tizimigacha) iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, ho'jalik taraqqiyoti va joylashish xususiyatlari, hamda hududning o'zlashtirilganlik darajasi, tabiiy sharoit va resurslar bilan chambarchas bog'liqdir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda butun yer shari aholisining 80 % sharqiy yarim sharda istiqomat qilmoqda. Okean va dengiz bo'yining 50 km qirg'oq bo'ylarida dunyo aholisining 30 %, 200 km li mintaqasida esa dunyo aholisining yarimi yashaydi.

Ma'lumki, kishilar avvalo hayot kechirishi uchun qulay bo'lgan (ayniqsa iqlimiy) va antropogen landshaftlarni bunyod etganlar. Aholi joylashishiga qadim zamonlardan aholining qishloq xo'jaligi bilan bandligi kuchli ta'sir qo'rsatgan va ko'rsatadi.

Hozirda yer sharida dunyo aholisi zich tarqalgan 3 ta arealni ajratish mumkin:

1. Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo. Bu yerlarda hozirgi vaqtda aholi zichligi 1 km^2 ga 200 kishidan ortadi. Ayrim joylarda esa 1 km^2 joyga 1500-2000 kishi va undan ham yuqori. Masalan: Bangladeshda aholi zichligi dunyo bo'yicha eng yuqori 1 km^2 -1035 kishi (2007 y). Aholi zichligiga bu erda kishilarning eng qadimdan yashashi, ko'p mehnat talab qiluvchi intensiv obikor dehqonchilikning tarixiy tarkib topganligi va aholining tabiiy ko'payishi xususiyatlari sabab bo'lgan.

2. Evropa davlatlari (Shimoliy Yevropa bundan mustasno). Bu arealda aholining o'rtacha zichligi 1 km^2 – 200-400 kishini, ayrim hududlarda 1000-1500 kishiga etadi. Masalan: Rur havzasida. Bu arealda aholi to'planishiga Yevropaning kishilik jamiyati tarixida sivilizasiya markazi bo'lganligi, sanoat taraqqiyotining boshlanishi, sanoat inqilobining vatani bo'lganligi va sanoatning yuksak darajada rivojlanganligi sabab bo'lgan.

3. AQSH ning shimoli-sharqiy qismi. Bu areal yosh, yangi areal bo'lib, asosan Yangi dunyo kashf etilgandan so'ng XIX-XX asrda Yevropa aholisining "buyuk ko'chishi" natijasidava Afrika negrlarining keltirilishi bilan AQSH ning jahon xo'jaligida 2-markaz sifatida paydo bo'lishi oqibatida paydo bo'lgan.

Bu arealda ham aholi zichligi 1 km^2 joyda 100 kishidan ortiq. Ko'l bo'yida esa aholi zichligi 1 km^2 da 1500 kishiga etadi.

Jahonda aholi zichligi 1 km^2 ga o'rtacha 49 kishi bo'lgani holatida (2012 y) bu ko'rsatkich Monakoda 33104 kishi, Xitoy Makaosida 20346 kishi, Singapurda 6785 kishi, Xitoy gonkongida 6308 kishi, Baxraynda 1098 kishi, Bangladeshda 1035 kishini tashkil etadi.

Aksincha, aholi zichligi eng kam bo'lgan hududlar: G'arbiy Sahroi Kabir, Gviana, Mongoliyada 2 kishi, Avstraliyada, Islandiyada, mavritaniyada, Botsvanada, Namibiyada, Kanadada, Surinamda 3 kishi (2012-y).

Dunyo aholisining joylashishiga aholining transport va savdo yo'llariga yaqinroq joylashishi, ayniqsa dengiz bo'yida joylashishi muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan: dengiz va okeanlarning qirg'oq'i bo'ylab cho'zilgan eni 200 km gacha bo'lgan sohillarda dunyo aholisining yarmi yashaydi. Orol va yarim orollarda joylashgan ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori. Masalan: tabiiy sharoiti qulay bo'lgan Yava orolida aholi zichligi 1 km^2 maydonda 2000 kishiga etadi. Millioner shaharlarning asosiy qismi ham dengiz bo'yidagi port shaharlardir.

Ayni paytda materik ichkarisida joylashgan, tabiiy sharoiti ham noqulay bo'lgan Mongoliyada aholi zichligi 1 km^2 ga 2 kishiga to'g'ri keladi. Dunyo aholisining zichligi 1 km^2 ga 49 kishi bo'lgani holda Horijiy Yevropada bu ko'rsatkich – 98 kishi ga, Shimoliy Amerikada – 14,5 kishiga, Lotin Amerikasida

– 21,4 kishiga, Horijiy Osiyoda – 115 kishiga, Afrikada – 22 kishiga, Avstraliya va Okeaniyada – 3 kishiga to`g`ri keladi.

Jahonda aholi zichligi eng yuqori va eng kam bo`lgan davlatlar: (1 km² ga kishi hisobida 2012-yil)

- | | |
|--------------------------|-----------------------------|
| 1. Monako – 33104 | 1. G`arbiy Sahroi Kabir – 2 |
| 2. Xitoy Makaosi – 22346 | 2. Mongoliya – 2 |
| 3. Singapur – 6785 | 3. Gviana – 2 |
| 4. Malta – 1288 | 4. Namibiya – 3 |
| 5. Baxrayn – 1098 | 5. Botsvana – 3 |
| 6. Bangladesh – 1035 | 6. Kanada – 3 |
| 7. Maldiv Resp – 1020 | 7. Avstraliya – 3. |

Shunday qilib, aholi joylashishiga tabiiy sharoitlar, iqtisodiy sharoitlar, aholining kelib o`rnashgn vaqti, xo`jalik tipi (dehqonchilikdami, sanoatdami, chorvachilikdami), tashqi va ichki migrasiyalarning intensivligi kabilar hal qiluvchi ta`sir ko`rsatadi. Ayni paytda Afrika aholisining joylashishiga tarixiy sharoit, ya`ni qul savdosi va mustamlakachilik tizimining ta`siri kuchli bo`lgan.

Har bir mamlakatning rivojlanishi uchun aholining muayyan soni va zichligi bo`lishi kerak.

Aholining soniga va joylashishiga aholining tabiiy ko`payishi bilan birga aholining “mexanik ko`payishi” ya`ni migrasiyalar ham katta ta`sir ko`rsatadi. Migrasiyaning asosiy sababi iqtisodiy sabab bo`lib, undan tashqari: siyosiy, diniy, milliy (turklar bilan o`zbeklar), ekologik (Orol bo`yi, Rur havzasi) sabablari ham mavjud.

Ichki migrasiyalar – bir mamlakat doirasida aholining qayta taqsimlanishi bo`lib, unda umumiy aholi soniga ta`sir etmaydi.

Tashqi migrasiyalar – mamlakat va qit`alar aholisi soniga ta`sir etadi. Immigrasiya – emmigrasiyadan ortiq bo`lganda mamlakat aholisi mexanik ko`payadi. Emmigrasiya ortganda esa aholi mexanik kamayadi. XIX asr boshlaridan II-jahon urushiga qadar Yevropa asosiy emigrasiya markaziga aylandi va 60 mln aholi ko`chib ketdi, 1-navbatda Shimoliy Amerikaga, Braziliyaga,

Argentina, JAR, Avstraliya va Yangi Zelandiyaga. II-jahon urushidan so`ng emmigrasiyaning 2-markazi – Osiyo vujudga keldi. Asosan Xitoy, Hindiston, Bangladesh, Yaponiyadan Horijiy Yevropa davlatlariga; JAR, AQSH, Braziliya, Indoneziya, Singapurga migrasiya kuchaydi.

1970-80 yillar Yer sharida immigratsiyaning yangi markazi Yaqin Sharq paydo bo`ldi. Bu regionda OPEK ga a`zo davlatlar chetdan ko`plab mehnatkashlarni o`ziga jalb qildi. Hindiston, Pokiston, Bangladesh – Yaqin Sharq mamlakatlariga asosiy ishchi kuchi etkazib beruvchi davlatlarga aylanib qoldi. Lekin hamon AQSH jahonda immigrasiyaning muhim markazi bo`lib kelmoqda. Yiliga AQSH ga 1 mln aholi immigrasiya qilmoqda.

XX asrning 2-yarmida tashqi migrasiyaning yangi shakli “Oqillar (donolar) migrasiyasi” paydo bo`ldi. Bunda: olimlar, vrachlar, injenerlar va boshqa malakali mutaxassislar ko`chib ketadi. “Oqillar migrasiyasi” dastlab Horijiy Yevropadan AQSH ga bo`lgan bo`lsa, 1980-90 yillardagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar tufayli MDH davlatlaridan Horijiy Yevropa va AQSH ga bo`lishi kuzatilinmoqda.

Jahondagi chet el ishchi kuchlarining (mehnatkashlar migrasiyasining) 40 % i SHimoliy Amerikaga, 25 % i Yevropaga, 20 % i Osiyoga, 15 % i boshqa regionlarga to`g`ri keladi.

Iqtisodiy faol aholining Qatarda 92 % ini, BAA da 89 % ini, Quvaytda 86 % ini, Omanda 70 % ini, Saudiya Arabistonida 60 % ini, Liviyada 50 % ini “gastarbeytarlar” tashkil etadi (2005 y).

Ichki migrasiyaga aholi qishloq joylaridan shaharlarga ko`chishi ham kiradi. XX asrning oxirlariga kelib bu migrasiya ko`lami shu qadar kattalashdiki, buni “XX-asrda aholining buyuk ko`chishi” deb atalindi.

Yangi yerlarning o`zlashtirilish ham migratsiya bilan bog`liq bo`lib, hududi katta va aholisi zich mamlakatlarda kuzatilinadi. Masalan: Rossiyada (Qoratuproq zonasining o`zlashtirilishi, BAM ni, taygani o`zlashtirilishi), Qozog`istonda, Kanadada (Shimolni o`zlashtirilishi), Braziliyada (Amazoniyani), Avstraliyada (savannalarni), Xitoyda (Tibetni), O`zbekistonda (Mirzacho`l, Yozyovon).

2- BOB. DUNYO AHOLISINING TARKIBIY TUZILMALARI VA GEOGRAFIK MANZARASI

2.1 Dunyo xalqlarining tarkibiy tuzilmalari

Aholining yosh-jins tarkibi unga xos belgilar ichida eng muhimi hisoblanadi. Chunki yoshga qarab aholining jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyati baholanadi. Butun dunyoda erkaklar soni ayollar soniga nisbatan qariyb 46mln.ga ko'proqdir. Lekin ayrim qit'alar va regionlarda o'g'il bolalarning ustunligi ko'zga tashlanadi. Dunyoda 0-14 yoshda har 1000 ta qizga 1064 ta o'g'il bola to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Yevropada (1064), Osiyoda (1058) hamda Avstraliya va Okeaniyada (1059) undan ham yuqori. Faqat Afrika (1008) va Amerikada (1039) nisbatan past daraja bilan ifodalanadi. Bolalar yoshdagilari farqning kelib chiqishida tug'ilgan har 1000 ta go'dakning 520 tasi o'g'il bolalardan iborat bo'lishligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Aholining, asosan, mehnatga mehnatga layoqatli qismidan tashkil topgan 15-64 yoshda dunyo bo'yicha har 1000 ta ayolga 1024 ta erkak to'g'ri keladi.

Dunyo aholisining yosh tarkibi

4- jadval

Qit'a, materik va mintaqalar	1970 yil			1985 yil			2008 yil		
	Yosh guruhlari								
	0-14	15-64	65+	0-14	15-64	65	0-14	15-64	65
Butun dunyo	36,6	57,9	5,5	33,7	60,6	5,7	27,0	65,0	8,0
Yevropa	24,9	63,7	11,4	20,9	66,7	12,4	17,0	69,0	14,0
Osiyo	38,9	57,0	4,1	35,5	60,6	4,4	30,0	64,0	6,0
Afrika	44,1	53,0	2,9	45,4	51,5	3,1	41,0	55,0	4,0
Amerika	36,4	57,2	6,4	31,6	61,2	7,2	26,0	65,0	9,0
Avstraliya va Okeaniya	32,2	60,5	7,3	28,6	63,3	8,1	22,0	66,0	12,0

Yevropada erkaklar soni ayollar soniga teng. Osiyoda har 1000 ta ayolga 1049ta erkak, Avstraliya va Okeoniyada 1039 ta erkak to'g'ri keladi. Shu vaqtning o'zida Afrika (979 erkak) va Amerika (990 erkak)da aksincha ayollar ustundir.

Dunyo aholisining yosh tarkibi ham katta hududiy farqlarga ega. Bunda tug'ilish va o'lim dinamikasi hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Tug'ilish darajasining keyingi 10-15 yil ichida yuqori bo'lishi aholi ichida yosh bolalar va o'smirlar umrining o'sishiga olib keldi. Agar tug'ilish keyingi yillarda pasaya brogan bo'lsa, bolalar va o'smirlarning jami aholi sonidagi ulushi past bo'ladi. Shu vaqtning o'zida o'rta va kichik yoshdagi aholi soni va ulushi ko'payadi hamda aholining "keksayish" jarayoni rivojlanishi mumkin.

Dunyo aholisining tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va keksa yoshdagi aholi salmog'i ko'paymoqda.

Ma'lumki, dunyo mamlakatlarining ko'piligida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi qatoriga erkaklarning 16-59 yoshdagi va ayollarning 16-54 yoshdagi qismi kiradi. Yuqorida keltirilgan jadvalda 15-64 yoshdagi aholi ulushi mehnatga layoqatli aholi ulushidan ma'lum miqdorda ko'p. Lekin ma'lum hisob kitoblar yordamida ular o'rtasidagi farqni qisqartirish va natijada mehnat resurslari salmog'ini tahminan aniqlash mumkin. Ana shunday yondashuv yordamida materik va okeanlar hamda ayrim mamlakatlarda mavjud mehnat resurslarining ulushini aniqlash mumkin. Mehnat resurslarining ulushi Yevropada eng yuqori ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi (62-64%), Amerikada hamda Avstraliya va Okeaniyada ushbu ko'rsatkich 56-58 % ni tashkil etadi. Osiyoda ham bu ko'rsatkich 53-54 %ni tashkil etadi. Faqat Afrikada mazkur ko'rsatkich (49 %) nisbatan past hisoblanadi. Dunyo aholisining 54 % mehnat resurslaridan iborat. Jahon aholisi o'ziga hos irqiy, etnik va diniy tarkiblarga ega.

Odamlar qadimdan jamoa bo'lib, qon-qarindohish bo'lib yashab kelganlar. Ana shunday birikmalarning eng muhimlari ularning irqiy va etnik birikmalaridir. Irq bu odamlarning kelib chiqishi gavda tuzilishi va qiyofasi o'xshash bo'lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligidir.

Irqlarning paydo bo'lishi va odamlar o'rtasidagi irqiy belgilar hamda xususiyatlarini kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bo'lib keng tarqalganlari ikkitadir. Antropologlarning bir qismi irqlar juda qadim Afrika, Yevropa va Osiyoning bir necha markazlarida vujudga kela boshlagan deb hisoblaydilar. Bu lisentrizm nazariyas Ikkinchi guruh olimlari hozirgi zamon kishisi bir markazda vujudga kelgan keyinchalik odamlar dunyoning turli qismmlariga tarqalib ketgan. Natijada tabiiy sharoiti bir-biridan keskin farq qiluvchi tabiiy sharoitga tushib qolishi natijasida hozirgi irqiy belgilar vujudga kelib rivojlanib borgan degan g'oyani ilgari suradilar.

Irqlar xalqlarning asosan tashqi ko'rinishiga va undagi farqlarga hamda ba'zi fiziologik belgilarga qarab ajratiladi. Kishi terisini ko'z va sochining rangi, yuz tuzilishi, bosh suyagining shakli, burun va laboratoriya tuzilishi ko'zlarining qisq keng bo'lishi erkaklarning yuzi va tanasida uning uzun qisqaligi hamda keyingi paytlarda e'tibor berilayotgan ichki belgi va xususiyatlar tish tuzilishi va boshqalar kiradi. Yer sharida uchta katta irq: yevropoid, mongoloid va ekvatorial hamda ko'plab aralashirqiy formalar ajratiladi. Turli irqlar o'rtasidagi farqlar qanchalik aniq bo'lmasin irqdan qat'iy naor hozirgi zamon kishilari o'rtasidagi morfologik, fiziologik va psixologik o'xshashliklar mavjud farqlardan bir necha marta ko'p va chuqurroqdir, tarixiy farqlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, yashayotgan sosial-iqtisodiy sharoit, tarbiya va boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda har xil irqqa mansub kishilarning aqliy qobiliyati bir-biridan farq qilmaydi.

Uchta irq dunyoning barcha aholisini qamrab ololmaydi. Asosiy katta irqlarga yaqin hududlarda har turli irqiy belgilarga ega bo'lgan xalqlar qadimdan yashab kelishgan. Keyingi davrlarda irqlararo nikohning ko'payishi natijasida turli irqlar o'rtasidagi aralash irqlar ham ko'payib bormoqda.

Yevropoid irqi dunyo axosilining 46,8 % ni o'z ichiga oladi. Asosiy irqiy belgilari: tana terisi oq yoki qoracharoq bo'ladi. Sochlari to'lqinsimon yoki to'g'ri, ba'zan o'rtacha bo'ladi. Burinlari kichik, tor, lablari yupqa va h.k. bu katta irq ikki guruhga - shimoliy va janubiy guruhlariga bo'linadi.

Mongoloid irqi dunyo aholisining taxminan 35,9 % ni tashkil etadi. Asosiy irqiy belgilari: tanasi och sariq yoki och qo'ng'ir rangli, sochlari to'g'ri va qatiq, erkaklarining ko'zlari qisq va suyagi chiqqanroq bo'ladi. Mongoloid irqi ham ikki guruhga bo'linadi. Osiyo va Amerika guruhlari.

Ekvatorial irqi dunyo aholisining 5,8 % ni o'z ichiga oladi. Asosiy irqiy belgilari: terisi qora, sochlari qora, jingalak, burni keng, lablari qalin. Ekvatorial irqi ham ikki tarmoqqa ajraladi: Afrika va Okeaniya tarmoqlari.

Aralash irqiy formalari. Qadimgi aralash irqiy forma yoki tiplariga efiop tipi kiradi. Ularning ko'p belgilari arablarga o'xshaydi. Ammo ular negroidlar singari qora tanli. Shuningdek, g'arbiy Afrika hududida yashovchi fulbe xalqlari ham aralash tiplarni tashkil qiladi. Ularning g'arbiy Sudanning oraliq formalari deb atashadi. Hindistonning janubida yevropoid va ekvatorial irqlarning okeaniya avlodi o'rtasidagi oraliq irqiy belgilarga ega bo'lgan xalqlar yashaydi. Janubiy sharqiy Osiyoda mongoloid irqining Osiyo alodi bilan ekvatorial irqning Okeaniya avlodi o'rtasidagi o'ralash tip vakillari yashaydi. Sharqiy mongoloidlarga nisbatan ularning rangi qoramtir, labi qalinroq, bo'yi pastroq bo'ladi.

Aralash irqiy formalarning ikkinchi katta guruhi o'rta asrlar va yangi asr aralash formalaridir. Bunday aralash formalar tarqalgan hududlardan biri O'rta Osiyo respublikalaridir. Bu yerdagi qadimgi tuproqshunoslik yevropoid aholi xalqlarining buyuk ko'chish davrida Markaziy Osiyodan kelgan mongoloid irqi bilan aralashib ketgan. Ana shu aralashishi natijasida aralash irqiy formalari ikki guruhga bo'lingan.

Birinchi tip turon tipi yoki janubiy Sibir tipi - bu tipga asosan mongoloid irqi belgilari ko'proq bo'lgan qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar kiradi. Ikkinchi tip O'rta Osiyo tipi. Bularda yevropoid irqining janubiy avlodiga xos belgilar saqlangan. O'rta asrlar va yangi davr irqiy formalari boshqa qit'alarda ham uchraydi.

Umuman dunyodagi uchta asosiy katta irq orasida juda ko'plab boshqa aralash forma va tiplar vujudga kelgan, yana bu jarayon davom etib kelmoqda. Bu

esa barcha irqqlarning biologik jihatdan bir ekanligini isbotlaydi. Va bu yana reaksion irqiy nazariyalarning asossizligini ko'rsatadigan dalildir.

Dunyo aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning har xil bosqichlarida turuvchi xalqlar –etnoslardan iborat. Etnosning eng yuqori darajasi millat- hududi, iqtisodiyoti va madaniyati, tilining barqaror tarzda umumiyligi bo'yicha ajralib turuvchi insonlar yig'indisidan iborat. Ularda millatga hos umumiy jihatlar, milliy o'zligini anglash hissiyoti manjud bo'ladi.

Osiyo mamlakatlarining aksariyati ko'p millatli. 150 dan ortiq xalq Hindiston va Indoneziyada, deyarli 100 xil millat Fillipinda, 50 dan ortiq I Vetnam va Xitoyda, 30 dan ortiq xalq Eron, Afg'oniston, Myanma, Tailandda istiqomat qiladi. Aholining etnik rang-barangligi ba'zi bir xalqlar tarqalgan hududlarning davlat chegaralari bilan bo'linishi tufayli yana ham kuchayadi. Masalan, kurdlar-Turkiya, Eron, Iroq va qisman Suriya, belujlar- Eron, Afg'oniston va Pokiston, panjobliklar – Pokiston va Hindistonda, bengallar – Bangladesh va Hindiston, pushtular – Afg'oniston va Pokiston davlatlari chegaradosh bo'lgan hududlarda zich yashaydi.

Dunyo mamlakatlari aholisining milliy tarkibi va etnik munosabatlarining xususiyatiga ko'ra qator guruhlariga taqsimlash mumkin. Birinchi guruhga bir millatli ya'ni asosiy millati jami aholisining 95 % dan ortiq qismini tashkil etuvchi mamlakatlar: Yevropada – Islandiya, Irlandiya, Norvegiya, Daniya, Polsha, Germaniya va b.; Osiyoda- Yaponiya, KXDR, Koreya Respublikasi, Bangladesh, Mo'g'iliston, Armeniya, yaman, Oman, Qatar; Afrikada – Misr, Liviya , Somali, Madagaskar; Janubiy Afrikada esa deyarli barcha mamlakatlar kiradi. Ikkinchi guruhni ushbu ko'rsatkich 70-95 %ga teng bo'lgan mamlakatlar – Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Finlandiyada, Ruminiya, Jazoir, Marokko, Zimbabve, Mavritaniya, Botsvana, Suriya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zellandiya va boshqalar tashkil etadi. Shunday davlatlar qatoriga O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Ozarboyjon ham kiradi. Uchunchi guruh mamlakatlarida (Eron, Afg'oniston, Gruziya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Pokiston, Malayziya, Laos, Markaziy, Sharqiy va janubiy Afrika mamlakatlari va boshqalar) asosiy millat

ulushi jami aholining yarimidan kam yoki ortiq, biroq 70 % dan past ko'rsatkich bilan ifodalanadi. To'rtinchi guruhda aholisi bir necha millatdan iborat, jekin ulardan birortasining ulushi sezilarli ustun bo'lmagan mamlakatlar to'plangan (Hindiston, Indoneziya, Fillippin Rossiya, Shveysariya, G'arbiy Afrika mamlakatlari).

DINIY TARKIB: Sayyoramiz aholisi juda ko'p turli - tuman dinlarga e'tiqod qiladilar. Xozirgi paytda afrikaning tropik o'rmonlarida, Aazonka xavzasida yashovchi ba'zi xalqlarda alloqachon tug'alib ketgan ibtidoiy din formalari 3 xamon saqlanib qolgan. Shuningdek, ba'zi xalqar e'tiqod qiladigan mahalliy va milliy ahamiyatga ega bo'lgan dinlar ham mavjud.

Yer shari aholisining ko'pchilik qismi asosan quyidagi dinlarga e'tiqod qiladi: xristian, Islom, budda. Odatda bu dinlar "dunyo yoinlari" deb ataladi. Jahon dinlaridan eng keng tarqalgani xristian dini bo'lib, unga asosan Yevropa, Amerika va Avstraliyada yashovchi taxminan 1 mlrd kishi e'tiqod qiladi. E'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra Islom dini ikkinchi o'rinda turadi. Asosan Afrika va Osiyoda joylashgan deyarli 30 ga yaqin mamlakatda Islom davlat dini deb e'lon qilingan. Markaziy va sharqiy Osiyoda tarqalgan budda dini davlat dini deb e'lon qilingan. U jahon dinlari orasida uchinchi o'rinda turadi.

Xristianlik eramizning 1-asrining ikkinchi yarmida Rim imperiyasining sharqida paydo bo'lgan. U o'rta asrlarda Yevropadagi xalqlarning asosiy diniga aylandi. Xristianlikning dunyoning boshqa qismlariga kirib borishi, ko'proq buyuk geografik kashfiyotlar davriga tshg'ri keladi.

Fransiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya, Avstriya va Germaniyaning janubiy rayonlari katolik cherkovi ta'sirida. Dinchi polyaklar, chexlar, slovaklar, slovenlar, vengerlar ham katolikka e'tiqod qiladilar.

Dunyoda ikkinchi o'rinda eng yosh Islom dini turadi. Bu din 7-asrning boshlarida Arabiston Yarim orolida vujudga kelgan Islom dinini odatda musulmon dini deb yuritiladi. Geografik nuqtai nazardan Islom diniga e'tiqod qiluvchilar nisbatan kompakt joylashgan. Islom dini shimoliy-g'arbiy va sharqiy Afrikada,

arab mamlakatlarida, kichik Osiyoda, Eron, afg'oniston, Pokiston, Bangladesh mamlakatlarida hukmron. Kipr aholisining bir qismi ham musulmonlardir.

Dinning ham salbiy ta'siri bor. Turli xalqlar va millatlarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yishi, diniy xurofotlar va diniy qarama-qarshilik natijasida hatto qonuniyatlar to'kishlar, urishlar kelib chiqishi mumkin. Masalan, Falastin va isroil munosabatlarida, Afg'oniston va Chechenistondagi voqyealarda ko'rish mumkin.

MDH hududida ham xristian dini keng tarqalgan. Xristianlikni pravoslav mazhabi keng tarqalgan. Ruslar, ukrainlar, beloruslar, chuvashlar, moldavanlar, gruzinlar, osetinlar kbilar xristian diniga e'tiqod qiladi. Katolik mazhabiga g'arbiy ukrainlar, beloruslarning bir qismi, litvalikar, latishlar e'tiqod qiladi.

MDH hududida ikkinchi katta din - Islom dinidir. Bu dinga O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari, shuningdek, sharqiy kavkaz xalqlari, tatarlar, bashqirlar, janubiy Sibirning turkiy tillarida gaplashuvchi xalqlari e'tiqod qilishadi.

Protestant mazxabidagi xalqlar yashaydigan mamlakatlarda odatda nikoh yoshi hammdan kech va ajralish esa unchalik murakkab emas. Ba'zi bir katolik mazhabiga mansub mamlakatlarda erkaklarga 14 yoshda, ayollarga 12 yoshda nikohga kirish qonun bilan ruxsat etilgan. Katolik uchun nikohni buzish ham 20-30 yil oldingiga nisbatan hozir ancha oson. Ilgari amalda bu man etilgan edi. Musulmon mamlakatlarida nikohga kirish yoshi juda kichik. Bu mamlakatlarda din erta va majburiy nikohni ko'p bolalikni ko'p xotinlikni qo'llaydi va ko'p hollarda demografik siyosatga salbiy munosabatda bo'ladi. Induizm ham erta va majburiy nikohni hamda ko'kat o'g'itlar bolalikni qo'llaydi. Lekin musulmonchilikdan farq qilib ajralishni va ikkinchi nikohni man etadi. Ilgari Hindistondagi 14 yoshgacha bo'lgan qizlar va o'spirinlarning yarmi oila qurgan bo'lardi.

Diniy qarama-qarshiliklar ko'pincha irqiy va milliy ziddiyatlar bilan bog'lanib, uzoq davom etadigan "qaynoq nuqtalarni" vujudga keltiradi.

Yer shari axolisining ko'pchilik qismi asosan quyidagi dinlarga e'tiqod qiladi: xristian, Islom, budda. Odatda bu dinlar "dunyo yoinlari" deb ataladi. Jahon dinlaridan eng keng tarqalgani xristian dini bo'lib, unga asosan Yevropa, Amerika va Avstraliyada yashovchi taxminan 1 mlrd kishi e'tiqod qiladi. E'tiqod qiluvchilar

soniga ko'ra Islom dini ikkinchi o'rinda turadi. Asosan Afrika va Osiyoda joylashgan deyarli 30 ga yaqin mamlakatda Islom davlat dini deb e'lon qilingan. Markaziy va sharqiy Osiyoda tarqalgan budda dini davlat dini deb e'lon qilingan. U jahon dinlari orasida uchinchi o'rinda turadi.

Xristianlik eramizning 1-asrining ikkinchi yarmida Rim imperiyasining sharqida paydo bo'lgan. U o'rta asrlarda Yevropadagi xalqlarning asosiy diniga aylandi. Xristianlikning dunyoning boshqa qismlariga kirib borishi, ko'proq buyuk geografik kashfiyotlar davriga tshg'ri keladi.

Fransiya, Italiya , Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya, Avstriya va Germaniyaning janubiy rayonlari katolik cherkovi ta'sirida. Dinchi polyaklar, chexlar, slovaklar, slovenlar, vengerlar ham katolikka e'tiqod qiladilar.

Dunyoda ikkinchi o'rinda eng yosh Islom dini turadi. Bu din 7-asrning boshlarida Arabiston Yarim orolida vujudga kelgan Islom dinini odatda musulmon dini deb yuritiladi. Geografik nuqtai nazardan Islom diniga e'tiqod qiluvchilar nisbatan kompakt joylashgan. Islom dini shimoliy-g'arbiy va sharqiy Afrikada, arab mamlakatlarida, kichik Osiyoda, Eron, afg'oniston, Pokiston, Bangladesh mamlakatlarida hukmron. Kipr axolisining bir qismi ham musulmonlardir.

Islom dini Indoneziyada ham asosiy din hisoblanadi. Bu dinga shuningdek, Fillipin davlatining janubiy qismida yashovchi xalqlar g'arbiy Hitoydagi uyg'ur va dunganlar ham e'tiqod qilishadi. Yevropada Istambul va uning atrofidagi usmoniy turklar, albanlar va bosniyaliklar, bolgarlarning bir qismi, lo'lilarning ko'pchiligi musulmon hisoblanadi.

Dunyo dinlari orasida e'tiqod qiluvchilar soni bo'yicha ham, geografik tarqalish areali jihatdan ham eng kichigi buda dinidir. Ammo tarixiy nuqtai nazardan eng qadimgi "dunyo dini"dir. Hozir bu dinga Hindiston axolisining bir qismi va tibetliklarning birikmalar qismi dunyo qiladi.

Milliy dinlarga Hindistondagi induizm, Hitoydagi konfusianlik, Yaponiyadagi sintoizm va boshqalar kiradi. Qadimiy dinlardan bo'lgan iudizm ham keng tarqlagan. Bu dinning ko'p qoidalari xristian dinida qabul qilingan.

Dinning ham salbiy ta'siri bor. Turli xalqlar va millatlarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yishi, diniy xurofotlar va diniy qarama-qarshilik natijasida hatto qonuniyatlar to'kishlar, urishlar kelib chiqishi mumkin. Masalan, Falastin va isroil munosabatlarida, Afg'oniston va Chechenistondagi voqyealarda ko'rish mumkin.

MDH hududida ham xristian dini keng tarqalgan. Xristianlikni pravoslav mazhabi keng tarqalgan. Ruslar, ukrainlar, beloruslar, chuvashlar, moldavanlar, gruzinlar, osetinlar kbilar xristian diniga e'tiqod qiladi. Katolik mazhabiga g'arbiy ukrainlar, beloruslarning bir qismi, litvalikar, latishlar e'tiqod qiladi.

MDH hududida ikkinchi katta din - Islom dinidir. Bu dinga O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari, shuningdek, sharqiy kavkaz xalqlari, tatarlar, bashqirlar, janubiy Sibirning turkiy tillarida gaplashuvchi xalqlari e'tiqod qilishadi.

MEHNAT RESURS TARKIBI: Aholining o'z jismoniy va ma'naviy imkoniyatlariga ko'ra mehnat qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi jamiyatning mehnat resurslari hisoblanadi.

Mehnat resurslariing soni turli mamlakatlarda turlicha, chunki, aholining yurldik jihatdan belgilab qo'yilgan va mehnat resurslariga kiritiladigan yosh chegarasi hamma mamlakatlarda bir xil emas. Xalqaro statistikada,odatda, 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lganlar mexnatga yaroqliaholi xisoblanadi.

Mexnat resurslari ishlab chiqarish zvenosida asosiy vazifani bajarganligi tufayli bu sohani o'rganish iqtisodiy geografiya zimmasidadir. Xozirgi iqtisodiy tushunchalar bo'yicha 16 yoshdan 59 yoshgacha erkaklar, 16 yoshdan 54 yoshgacha bo'lgan xotin-qilar mehnat yoshidagi aholi sanaladi va mamlakatni asosiy mexnat resurslari xisoblanadi.Bu yoshdagi aholining xammasi xam ishlaydi deb bo'lmaydi, albatta. Masalan, ishlab chiqarishdan ajralgan xolda o'qiyotganlar va salomatligi yomonligi tufayli ishlay olmaydigan invalidlar va h.k. lar shular jmlasidandir. Aksincha pensiya yoshidan oshib ketgan keksalar va shuningdek, hali 16 yoshga to'lmagan ba'zi o'smirlar ham ijtimoiy ishlab chiqarishga ishtirok etadi. Bu mehnatga qobiliyatli aholi tushunchasini kiritishni taqozo qiladi. Mehnatga qobiliyatli aholi deganda har qanday mamlakatning yoshidan qat'iy nazar real mehnat resurslari tushuniladi. Bu mehnat resurslari soniga bevosita ta'sir

qiladi. Ishchi kuchidan foydalanish muammolarini yanada rasional hal qilish maqsadida mehnatga qobiliyatli aholini ijtimoiy mehnat bilan bandlik darajasi va haraktrini hisobga olish xalq xo'jaligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda umuman mamlakatimiz bo'yicha va alohida iqtisodiy rayonlar, shaharlar bo'yicha ishchi kuchidan oqilona foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakat alohida iqtisodiy rayon shahar aholisi tarkibidagi ishga qobiliyatli aholi sonini aholining tabiiy o'sish darajasiga jins -yosh strukturasiga mehnat harakati ko'rsatkichiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Mehnatga qobiliyatli aholi soni Farg'ona vodiysi shahar aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Bu yerda bu ko'rsatkich O'zbekistondagi ishga qobiliyatli shahar aholisining salmog'idan sobiq Ittifoqdagi barcha mehnatga qobiliyatli aholining umumiy aholi tarkibidagi salmog'ini belgilaydigan umumittifoq ko'rsatkichidan ancha kamdir. Vodiydagi mehnatga qobiliyatli shahar aholisi salmog'ining kamligi bu yerda aholi sonining tabiiy o'sish ko'rsatkichlari ancha yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa aholining umumiy sonida bolalar va o'smirlar salmog'ining ko'pligiga olib keladi va mehnatga qobiliyatli aholining salmog'iga bevosita ta'sir qo'llaniladi. Shunday qilib vodiydagi biz so'z yuritgan yosh strukturasida 16 yoshgacha bolalardan iborat anchagina mehnat resurslari rezervi va aholining yangi-yangi kontingentini ijtimoiy ishlab chiqarishga doimo jalb qilib turish imkoniyati mavjudligi nuqtai nazardan umuman qulaylik tug'diradi. Butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi Farg'ona vodiysida ham mehnat resurslarining o'sish sur'atlari nisbatan yuksakligiga va texnika taraqqiyotining katta muvaffaqiyatlariga qaramay, sanoat va madaniyatning tezlik bilan o'sishi negizida mehnatga qobiliyatli aholini ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarida band butun aholining 40 % bevosita ijtimoiy mehnat bilan shug'ullanadi. Farg'ona vodiysi shaharlaridagi mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi umumittifoq darajasiga deyarli tengdir.

Mehnat resurslarini unumdorligiga ko'ra 5 guruhga bo'lib o'rganiladi.

1. 16 yoshdan -19 yoshgacha ko'proq majburiy holdagi mehnat resurslari sifatidagi ishlar namoyon qilinadi.

2. 20 yoshdan - 29 yoshgacha. Bu davr mehnat resurslarining yoshlik davri bo'lib, asosiy vaqt va kuch mehnatga tayyorlanishga sarflanadi.

3. 30 yoshdan - 39 yoshgacha bo'lgan aholi aktiv mehnat resurslari hisoblanadi.

4. 40 yoshdan - 49 yoshgacha bo'lgan aholi mehnat resurslarini o'rta daridir. Bu davrda to'plangan bilim, ko'nikma va malakalar ishga solinadi.

5. 50 yoshdan - 59 yoshgacha bo'lgan davr mehnat resurslarining katta davridir. Unumdorlikda pasayish boshlanadi.

Mehnatga yaroqli aholi o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi: iqtisodiy aktiv aholi va iqtisodiy aktiv bo'lmagan aholi.

Mehnat resurslarini geografik jihatdan o'rganish mamlakatlar va rayonlar aholisining hududiy joylanish uning yosh tarkibini o'rganish bilan birga mehnatga yaroqli aholining ishlab chiqarishda qatnashuvi va bu qatnashuvdagi fikrlar hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotganlarning xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlarida ishchi kuchidan mavsumiy foydalanish xususiyatlarini o'rganish ham mehnat resurslaridan foydalanishni geografik tadqiqot qilishning muhim tomonlaridan biridir.

2.2 Xalqlarning hududiy joylashuvi klassifikatsiyasi va tarkibiy tuzilmalarining o'zaro bog'liqligi

Tarix tajribasi bizga shuni ma'lum qiladiki, xalqlar qadimdan o'zlariga qulay bo'lgan joylarni o'zlashtirib o'sha hududlarda yashashga intilgan. Ana shunday hududlar misol qilib daryo bo'yi hududi qadimgi Mesopatamiya, Garbiy Yevropa, Janubiy sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Sharqiy Afrikalarni aytish mumkin. Bu hududlarda aholi qadimdan yashab ho'jalik ishlarini yuritib kelganligi sababli hozirda bu joylarda aholi juda zich yashaydi. Dunyo aholisining mana shunday zich joylashgan hududlarida turli xil etnik birikmalar tarkib topgan. Ko'pgina mayda qabilalar va etnografik guruhlarini xisobga olganda ham sayyoramizda 2 mingdan ortiq turli xalqlar yashaydi. Ularni ma'lum xususiyatlariga qarab klassifikatsiyalash mumkin.

1. Xalqlarning soniga qarab
2. Lingvistik klassifikatsiyalash
3. Geografik tarqalishiga ko'ra klassifikatsiyalash

Xalqlarni soniga ko'ra quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Aholisi 100 mln kishidan ko'p bo'lgan xalqlar: ayni vaqtda bunday xalqlarning 10 tasini alohida ko'rsatish mumkin. Ular yer yuzi aholisining 50 %ni tashkil etadi.

Dunyoda eng ko'p tarqalgan xalqlar va tillar (5 – jadval)

№	Dunyodagi eng yirik xalqlar	Soni (mln kishida)	Dunyodagi eng ko'p tarqalgan tillar	Shu tilda so'zlashuvchi aholi (mln kishi)	Aholisi eng ko'p davlatlar	Soni (mln kishiida)
1	Xitoylar	1100	Xitoy	1100	Xitoy	1341
2	Hindistonliklar	220	Ingliz	350	Hindiston	1192
3	Amerikaliklar	190	Ispan	250	AQSh	311
4	Bengallar	180	Arab	220	Indoneziya	238
5	Ruslar	150	Hindi	200	Braziliya	191

6	Braziliyaliklar	140	Bengal	160	Rossiya	143
7	Yaponlar	125	Portugal	160	Pokiston	171
8	Panjobliklar	90	Rus	150	Nigeriya	158
9	Bixarliklar	90	Yapon	125	Bangladesh	150
10	Meksikaliklar	85	Nemis	90	Yaponiya	127

2. Aholisi bir mln dan ko'p bo'lgan 257 xalq

3. Aholisi ming kishidan ko'p bo'lgan 531 xalq.

Lingvistik klassifikasiyalash xaqlarni tiliga qarab guruhlariga ajratish bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh tillar oilalarga birlashtiriladi, ular esa o'z navbatida guruhlariga ajratiladi. Lingvistik klassifikasiya bilan tillar klassifikasiyasi boshqa-boshqa narsa.

Til millatlarning farqini bildiruvchi asosiy omildir. Dunyo xalqlarida tilning shakillanishi tabiiy geografik sharoit, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, kabi omillar ta'sirida kechadi. Kishilik jamiyatining birlamchi so'zlashuv tili kabilar shakillangan davrlarda rivojlana boshlagan. Bunday til lug'ati juda kambag'al, Grammatik jihatdan tizimlashmagan bo'lgan. Ibtidoiy qabilalarning hududiy ajralishi va dunyo bo'ylab tarqalishi yangi tillarning paydo bo'lishini va rivojlanishini kuchaytirdi. Tilning shakillanishiga ta'sir ko'rsatuvchi geografik-tabiiy sharoit omili haqida juda qiziqarli fikrlar bildirgan. Masalan shimol xalqlarining undosh tovushlarni juft talafuz qilishini iqlimning sovuqligi bilan izohlaydilar. Xalqlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti turli omillar ta'sirida har xil kechganligi tillarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun bugungi kunda dunyoda bir necha o'nlab kishilar so'zlashuvchi, yozuvsiz qabila tillari ham, bir necha millatlarga tegishli millionlab kishilar foydalanadigan, boy adabiyotga ega jahon tillari ham mavjud.

Ayni vaqtda dunyoda mavjud tillarning soni 3000 atrofida deb hisoblanadi. Ammo ularning aniq miqdorini ko'rsatish mumkin emas, chunki juda ko'p xalqlarning tillari to'liq o'rganilib chiqilmagan va ularning qaysi til guruhiga mansubligi aniqlanmagan. Bunda til va lahja tushunchalarining ba'zan chalkashish

holatlarini ham ko'p uchratish mumkin. Shunga ko'ra dunyo aholisining milliy tarkibi xalqlarning qaysi til oilalari va til guruhlariga tegishli ekanligi bilan ifodalanadi. Dunyo xalqlarining milliy tarkibi va til tarkibini quydagi xalqlarning lingvistik klasifikatsiyasida ko'ramiz.

1. Hind-Yevropa oilasi - Yevropaning katta qismi, shimoliy va janubiy Amerika, shim. Hindiston, Eron xalqlari.

2. Kavkaz oilasi - asosan Zakavkaze xalqlari

3. Ural oilasi - Yevropaning ba'zi mamlakatlari, MDHni Yevropa qismi va Sibirning ayrim rayonlari.

4. Olton oilasi (turk, mongol va tungum) guruhlar bilan

5. Hitoy - tibet oilasi Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo xalqlari

6. Malayya-Polineziya oilasi - Tinch va Hind okeani orollari xalqlari

7. Dravid oilasi - janubiy Hindiston xalqlari

8. Mon-kxmer oilasi - hindixitoy oilasi

semit - xamit oilasi janubiy g'arbiy Osiyo, shimoliy Afrika xalqlari.

10. Bantu oilasi - janubiy Afrika tub xalqlari

Xalqlar klassifikatsiyasi turlari orasida eng muhimi keng tarqalgani Lingvistik klassifikatsiyasidir. Bu klassifikatsiyaga binoan dunyo xalqlari kartasiga nazar tashlasak, aholisi eng ko'p va zich joylashgan hudud - Osiyo materigining sharqi va janubiy sharqida ekanini ko'ramiz. Bu dunyo aholisining 1/5 qismini tashkil etadi.

Dunyo xalqlarining til tarkibi hududiy harakterga egadir. Buni biz quydagi jadval asosida ochib, tushuntirib beramiz.

Jadval til oilalari

(6-jadval)

Til oilasi	Til guruhi	Xalqlar	Asosiy yashash va tarqalgan hududlar
HIND- YEVIROPA TIL OILASI	Slavyan guruhi	1.Ruslar	Rossiya, MDH, AQSH, Kanada, Yevropa mamlakatlari
		2. Ukrainlar	Ukraina, Rossiya, AQSH va Kanada, Polsha
		3. Beloruslar	Belorus, Rossiya, Polsha
		4. polyaklar	Polsha, Fransiya, AQSH, Kanada, Ukraina, Belorus
		5. Chexlar	Chexiya, AQSH
		6. Slovaklar	Slavakiya, AQSH
		7. Slovenlar	Sloveniya, AQSH
		8.Xorvatlar	Xorvatiya, AQSH
		9. Bosniyaliklar	Bosniya va Gersogovina
		10. Serblar	Serbiya, Chernogoriya, Bosniya, Xorvatiya
		11. Makedonlar	Makedoniya
		12. Bolgarlar	Bolgariya, Rossiya
	Letto-litva guruhi	1. Litvaliklar	Litva, AQSH, Kanada
		2. Latishlar	Latviya, AQSH, Kanada
	German guruhi	1. Nemislar	Germaniya, Ruminiya, Vengrya, Chexiya, AQSH, Kanada, Braziliya, Rossiya
		2.German-shveysariyaliklar	Shveysariya, AQSH

		3. Avstryaliklar	Avstrya, Italiya, AQSH
		4. Elzas-lotoringiyaliklar	Fransiya
		5. Gollandlar	Niderlandiya, AQSH
		6. Flamandlar	Belgiya, Fransiya, AQSH
		7. Afrikanerlar (burlar)	JAR
		8. Shvedlar	Shvedsiya, Finlandiya, AQSH
		9. Norveglar	Norvegiya, AQSH, Kanada
		10. Daniyaliklar	Daniya, AQSH
		11. Islandlar	Islandiya
		12. Inglizlar	Buyuk Britaniya, JAR, AQSH, Kanada, Avstraliya, Osiyo
		13. Shatlandlar	Buyuk briyaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya
		14. Ingliz-avstraliyaliklar	Avstraliya va Okeaniya
		15. Ingliz- yangi zellandiyaliklar	Yangi Zellandiya
		16. Ingliz-kanadaliklar	Kanada, AQSH
		17. Amerikaliklar	AQSH , Kanada
		18. Yamaykaliklar	Yamayka, Buyuk Britaniya
	Kelt guruhi	1. Irlandlar	Irlandiya, Buyuk Britaniya
		2. Bretonlar	Fransiya
		3. Uelslar	Buyuk Britaniya
	Roman guruhi	1. Italiyanlar	Italiya, Fransiya, Shveysariya, AQSH, Kanada, Argentina, Afrika, Avstraliya
		2. Fransuzlar	Fransiya, Jazoir, AQSH

		3. Franko-shveysariyaliklar	Shveysariya
		4. Vallonlar	Belgiya
		5. Franko-kanadaliklar	Kanada, AQSH
		6. Gaitiliklar	Gaiti
		7. Ispanlar	Ispaniya, Fransiya, Argentina
		8. Kataloniyaliklar	Ispaniya, Fransiya
		9. Meksikaliklar	Meksika, AQSH
		10. Kubaliklar	Kuba
		11. Markaziy Amerika xalqlari*	Markaziy Amerika davlatlari
		12. Janubiy Amerika millatlari	Janubiy Amerika davlatlari
		13. Portugallar	Portugaliya, AQSH, Braziliya, Angola, Yashil burun orollari
		14. Galisiyaliklar	Ispaniya, AQSH
		15. Ruminlar	Ruminiya, AQSH, Moldova
		16. Moldovanlar	Moldova, Rossiya
	Alban guruhi	1. Albanlar	Albaniya, Serbiya
	Yunon guruhi	1. Yunonlar	Gretsiya, Turkiya, Kipr, AQSH, Kavkazorti Respublikalari
	Eron guruhi	1. Forslar	Eron
		2. Gilyanlar	Eron
		3. Kurdlar	Turkiya, Eron, Iroq, Suriya

		4. Tojiklar	Tojikiston, O'rta Osiyo R. Afg'oniston
		5. Xazariylar	Afg'oniston
		6. Afg'onlar(pushtunlar)	Afg'oniston, Pokiston
		7. Belujlar	Pokiston, Eron
		8. Osetinlar	Rossiya fed, Janubiy Osetiya
	Xind guruhi	1. Bengallar	Pokiston, Hindiston
		2. assamliklar	Hindiston, Butan
		3. Oriylar	Hindiston
		4. Bixarliklar	Hindiston,Nepal
		5. Xindistonliklar	Hindiston, Afrika
		6. Rojastonliklar	Hindiston
		7. panjobliklar	Pokiston, Hindiston
		8. g'ujorotliklar	Hindiston, Pokiston
		9. bxillar	Hindiston
		10. nepalliklar	Nepal, Hindiston
		11. Boshqa xalqlar*	
	Arman guruhi	1.Armanlar	Armaniston, Suriya, Eron
	Yahudiy lar	1. Yahudiylar	Isroil, AQSH, Yevropa

KAVKAZ TIL OILASI	Kartvel guruhu	1. Gruzinlar	Gruziya, Rossiya
	Adigey- abhiz guruhu	1. Adigeylar 2. Abhazlar 3. Chechenlar 4. Ingushlar 5. Avarlar 6. Ajarlar 7. Cherkaslar 8. Lazginlar	Kavkaz Respublikalari
	Dog'iston guruhu	1. Dog'lar 2. Qorachoylar 3. Bolqorlar	Rossiya
	Burishlar	1. Burishlar	Hindiston
	Basklar	1. Basklar	Ispaniya, Fransiya
XOM-SOM OILASI	Som guruhu	1. Arablar 2. Amharalar 3. Isroil yahudiylari 4. Tigrailar	1. Arab davlatlari 2. Efiyopiya 3. Isroil 4. Efiopiya
	Kush guruhu	1. galla 2. somali	1. Efiopiya 2. Somali
	Barbar guruhu	1. kobillar 2. tomozigtar 3. shlyohlar	1. Jazoir 2. Marokash 3. Marokash

	Haus guruh	1. Xauslar	Niger, Nigeriya
BANTU OILASI	Bantu guruhlari	1.Afrika xalqlari*	Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrika Davlatlari
NIGER-KARDOFAN OILASI		Afrika xalqlari*	Markaziy Afrika davlatlari
MANDE OILASI		1. mandingolar	
	Gvineya guruh	1. gvineya qo'ltig'i xalqlari	Gvineya qo'ltig'i davlatlari
NILOT GURUHI		1. Sharqiy Afrika xalqlari	Sharqiy Afrika davlatlari
URAL OILASI	Fin guruh	1. finlar 2. estonlar 3. Mordvalar 4. Saamlar 5. loparlar 6. marilar 7. udmutlar 8. karellar	1. Finlandiya 2. Estoniya 3. Rossiya (Mordoviya R) 4. Finlandiya 5. Norvegiya 6. Rossiya (Mari-El R) 7. Rossiya (Udmurtiya R) 8. Rossiya

	Ugor guruhi	1. Vengerlar 2. xantlar 3. mansilar 4. Komi- permyaklar	1. Vengrya, Ruminiya, Chexiya 2. Rossiya 3. Rossiya 4. Rossiya
OLTOY TIL OILASI	Turk guruhi	1. o'zbeklar 2. qozoqlar 3. turklar 4. qirg'izlar 5. turkmanlar 6. ozarboyjonlar 7. tatarlar 8. boshqirdlar 9. chuvashlar 10. uyg'urlar	1. O'zbekiston, O'rta Osiyo R.,Afg'oniston 2. Qozog'iston, Xitoy, O'rta Osiyo R 3. Turkiya, Kipr,Bolgariya 4. Qirg'iziston, O'rta Osiyo Respublikalari 5. Turkmaniston, Eron, Afg'oniston 6. Ozarboyjon, Eron 7. Rossiya 8. Rossiya 9. Rossiya 10. Xitoy (Uyg'ur-Sintsizyan) O'rta Osiyo Respublikalari
	Mo'g'ul guruhi	1. Mo'g'ullar	Mo'g'uliston, Xitoy
	Tungus-manjur guruhi	1. manjurlar 2. tung uslar	1. Xitoy 2.

KOREYS		1. Koreyslar	Koreya, Xitoy
YAPON		Yaponlar	Yaponiya, AQSH
XITOIY_ TIBET OILASI	Xitoy guruhi	1. xitoylar 2. dungalar	1. Xitoy 2. Xitoy, AQSH
	Tan-chjuan guruhi	1. siamliklar 2. laolar 3. shan 4. chjuanlar	1. Tailand 2. Laos 3. Myanma 4. Xitoy
	Tibet-birma guruhi	1. tibetliklar 2. itszular 3. birmaliklar 4. karenlar	1. Xitoy 2. Xitoy 3. Myanma 4. Myanma
	Vetnam guruhi	1. Vetnamliklar	1. Vetnam
MON_KXMER OILASI		kxmerlar	Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari
MUNDA OILASI		Santallar	Hindiston

DRAVID OILASI		1. teluglar 2. tamillar 3. malayali 4. kannara 5. tondlar	1. Hindiston 2. Hindiston, Shri-Lanka 3. Hindiston 4. Hindiston 5. Hindiston
ANDAMAN OILASI		1. Andamanliklar	1. Hindiston
MALAYA-POLINEZIYA TIL OILASI	Indoneziya guruhi	1. Indoneziya orollari xalqlari 2. malayaliklar 3. malgashlar	1. Indoneziya 2. Malayziya 3. Madagaskar
	Polineziya, Mikroneziya, Meloneziya guruhi	1. Polineziya, Melaneziya, Mikroneziya guruhi	Okeaniya
PAPUAS OILASI		Papuas xalqlari	Papua-Yangi Gvineya
		aynlar	Yaponiya
		Eskimoslar, Aleutlar	AQSH, Rossiya

XINDU XALQLARI	1.	Na-dene oilasi	1.	AQSH
	2.	alkogin-vakash oilasi	2.	AQSH, Kanada
	3.	Xoka-siyu oilasi	3.	AQSH
	4.	astek oilasi	4.	Meksika
	5.	mayya-soke oilasi	5.	Meksika, Gvatemala
	6.	otomi-mishteki-sopataki oilasi	6.	Meksika
	7.	chibcha oilasi	7.	Kolumbiya, Panama
	8.	tupi-guarani oilasi	8.	Paragvay
	9.	paragvay-guarani oilasi	9.	Paragvay
	10.	kechua	10.	Peru, Ekvador, Boliviya
	11.	aymara	11.	Boliviya, Peru
	12.	araukanlar	12.	Chili
	13.	aravaklar	13.	Peru, Kolumbiya
	14.	karib	14.	Peru, Kolumbiya
	15.	pano	15.	Peru, kolumbiya

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqea hodisalar (bosqinchilik urushlari, mustamlakachilik, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, davlatlarning tashkil topishi va boshqalar) ba'zi tillarning dunyo bo'ylab keng tarqalishi va ayrim xalqlar tomonidan rasmiy til sifatida tan olinishiga sabab bo'lgan. Bu ayniqsa ko'p asrlar mobaynida Yevropa davlatlari tomonidan mustamlaka qilingan Afrika davlatlari misolida ko'rinadi.

Dunyo bo'yicha keng muomaladagi tillar jahon tillari deyiladi va rasmiy muzokaralar, barcha aloqalar ushbu tillarda olib boriladi. Jahon tillari orasida ham keng va muayyan xalqlar tomonidan ishlatiladigan tillar ham bor. Bu kabi jahon tillariga: ingliz, fransuz, nemis arab, xitoy, rus, xind, Portugal, ispan tillari kiradi.

Bu tillarning ichida eng ko'p ishlatiladiganlari ingliz, fransuz va ispan tillari hisoblanadi. Chunonchi dunyoning 76 mamlakati ingliz tilini rasmiy davlat

tili sifatida ishlatadi. Shundan 40 % I Amerika davlatlari, 30% ni Afrika davlatlari tashkil etadi. 34 davlatda fransuz tili rasmiy davlat tili sifatida qo'llaniladi. Bu davlatlarning 60 % I Afrika qit'asida. 21 davlat ispan tilini o'ziga rasmiy davlat tili sifatida qo'llaydi. Bu davlatlarning 78%i Amerika qit'asidadir.

Yevropa tillari Afrika qit'asi davlatlarida keng ishlatiladi va bu mahalliy til bilan teng ravishda olib boriladi. Ingliz tili davlat tili sifatida: Gviney-Bisau, Serra-Leone, Liberiya, Gana, Nigeriya, Zimbabve. Mahalliy til bilan birgalikda Uganda, Keniya, Tanzaniya, Komor orollari, Botsvana, Svazilend, Lesoto, JAR, Malavi, Seyshel orollari. Fransuz tili davlat tili sifatida Senegal, Gvineya, Kot-d-ivuar, Togo, Benin, Gabon, Kongo, Zair, MAR, Niger, Mali. Mahalliy til bilan birga Burundi, Ruanda.

Ingliz va fransuz tillari birgalikda : Kamerun, Seyshel orollari, Komor orollari. Arab va Fransuz tillari birgalikda Chad mamlakatida bo'lsa, Shimoliy Afrika davlatlarida arab tili davlat tili sifatida qo'llaniladi. Ispan tili Ekvatorial Gvineyada, Portugal tili Angola, San-tome va prinsipi davlatlarida.

Turli davlatlar hududida bir-biriga yaqin bo'lmagan millatlar azaldan yashab keladi. Bu hol asrlar davomida shakllanib kelgan millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi bilan bog'liqdir.

Hududiy geografik prinsipga ko'ra ma'lum oblastlarda tarixiy etnografik hududlar ajratiladi. Bu hudud ham tabiiy oblastlarga ham tarixiy oblastlarga deyarli mos tushadi. Dunyo bo'yicha olganda bu prinsip bo'yicha quyidagi regionlarni ajratish mumkin.

1. Shimoliy Amerika. 2. G'arbiy Yevropa. 3. Janubiy sharqiy Osiyo. 4. Rossiya. 5. Afrika. 6. Avstraliya va Okeaniya. 7. Markaziy va Lotin Amerikasi.

Sobiq Ittifoqda yashovchi xalqlarni quyidagi 4 ta guruhga bo'lish mumkin.

1. Yevropa qismi
2. Kavkaz qismi
3. O'rta Osiyo va Qozog'iston
4. Sibir va Uzoq Sharq xalqlari.

3-BOB XALQLARNING HUDUDIY JOYLASHUVI VA TARKIBIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

3.1. Xalqlarning hududiy joylashuvi bilan bog'liq muommolar

Yer yuzida aholi judayam notekis taqsimlanganligi bizga ma'lum albatda. Zichligi ming kishidan ortiq bo'lgan gavjum hududlardan tashqari, odam umuman yashamaydigan hududlar ham mavjuddir. Bu o'z navbatida bir qancha muommolarni yuzaga keltiradi. Masalan:ekalogik muommo, migratsion holatlar bilan bogliq bo'lgan bir qncha hududiy muommolar, uy joy yetishmasligi, ishsizlik, suv yetishmaslik va shu kabi muommolar. Dunyo xalqlarining joylashuvi bilan bog'liq bo'lgan muommolarnni ilmiy jihatdan asoslab, tegishli hulosalar chiqarishda bir qancha demografik ma'lumotlarga to'htalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumotlarga qaraganda inson tomonidan o'zlashtirilmagan hududlar butun quruqlikning 15 %ni tashkil etar ekan. Bunday joylarga qutbyoni xududlar (doimiy yashash hududlari 78 gradus shimoliy kenglikdan janubda va 54 gradus janubiy kenglikdan shimolda joylashgan). Ba'zi baland tog' mintaqalari aholidan holidir. (Bunga dengiz sathidan 5000 metr balandlikdagi barcha hududlarni kiritishimiz mumkin). Shuningdek Markaziy, Janubiy-g'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikaning ulkan sahrolari ham odam yashamaydigan joylardir. Ayni vaqtda quruqlikning 7 % da yer yuzi aholisining 70 % dan ortiqrog'i yashaydi.

Yer yuzi aholisining ko'pchiligi tekisliklarda istiqomat qiladi. Insoniyatning $\frac{3}{4}$ qismi dengiz sathidan 500 metr balandlikkacha bo'lgan pastekislik va tekisliklarda joylashgan. Bunday hududlar esa quruqlikning 27,8 % ni tashkil etadi. Yevropa, Avstaliya va okeaniyada bunday hududlarda aholining 9/10 qismi yashaydi. Afrika va Janubiy Amerikada aholining anchagina qismi dengiz sathidan 500-1500 m (mos ravishda 34.6 va 27,5 %) bo'lgan hududlarda istiqomat qiladi. Boliviya, Afg'oniston, Efiopiya, Meksika va Peruda aholining 2/3 qismi dengiz sathidan 1000 metr balandda yashaydi. Niderlandiya, Polsha, Fransiya, AQSh, Yaponiya va boshqa qator mamlakatlarda barcha aholi punktlari 500 metrlik

chegaradan yuqoriga ko'tarilmagan. (Niderlandiyada aholining 2/5 qismi dengiz sathidan past bo'lgan joylarda yashaydi)

Yer yuzi aholisining balandlik mintaqalarida taqsimlanishi

(7 - jadval)

Dunyo xududlari	Dengiz sathidan balandlik						Yashash hududining oʻrtacha balandligi	Hududining oʻrtacha balandligi
	200 m dan	200-500 m	500-1000	1000-1500	1500-2000	2000 m		
	Aholi % da						metrda	
Yevropa	68,8	23,5	7,2	0,5	-	-	170	300
Osiyo	56,5	23,5	11,7	4,9	2,5	0,9	320	950
Afrika	32,5	24,1	20,8	13,8	6,8	2,0	590	750
Shimoliy Amerika	46,9	33,3	7,9	4,1	4	3,8	430	700
Janubiy Amerika	42,3	15	22,8	4,7	4,2	11,0	645	580
Avstraliya va Okeaniya	72,9	17,8	8,4	0,9	-	0	95	350
Butun quruqlik (Antarktida va Grenlandiyadan tashqari)	56,2	24	11,6	4,4	2,3	1,5	320	725

Aholining balandlik mintaqalari bo'ylab notekis joylashishiga yana bir sabab Yer yuzi quruqlik qismlaridagi o'rtacha balandliklarning turlicha ekanligidadir. (Osiyoda 950 m, Shimoliy Amerikada 700-750 m, Yevropada 300 m). Ammo bu aholining notekis joylashuviga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy sabab emas. Masalan Osiyo qitasida o'rtacha balandlik Amerika qit'asidan yuqoriroqdir. Lekin aholisining ko'pchiligi past tekisliklarda yashaydi. Bu holatni Osiyo Osiyo balandlik mintaqalarining yaxshi o'zlashtirilmaganligi bilan tushuntirish mumkin.

Shuning uchun ham Osiyo aholisining $\frac{3}{4}$ qismi Xitoy, Hindiston, Hindixitoy va boshqa mintaqalarning ulkan pasttekisliklarida nixoyatda zich holatda yashamoqda. Buni birgina Yaponiya misolida ham ko'rish mumkin. Aholisining son jixatdan ortiqligi kuzatilani holda Yer yuzasining katta qismi dengiz sathidan 500 m balandlikda joylashganligiga qaramay, bu hududlarning aholisining zichligi past. 1000 m balandlikda esa deyarli odamlar yashamaydilar.

Aholi joylashuvining yana bir ko'rsatkichi dengizga yaqinlikdir. Ishlab chiqarishning taraqqiy etishiga mos ravishda kishilar yer yuzining har qanday joyida yashay oladi. Lekin shunga qaramay ayni paytda ham dengizga yaqinlashgan sari aholi zichligu ortib boradi. Dengiz qirg'og'idan 200 km masofada – (bu quruqlikning 16 % ni tashkil etadi) yer yuziaholisining yarimi istiqomat qiladi.

Yer yuzi aholisining regionlar bo'yicha dengizga yaqinligi ko'rsatkichlari

(S. Bruk ma'lumotlari) (8-jadval)

Hududlar	Dengizga turli masofada yashovchi aholi ulishi %					Ushbu hududning dengizgacha bo'lgan o'rtacha masofasi(km da)	Qirg'oq bo'yining rivojlanishi
	0-50 km	50-200 km	200-500 km	500-1000 km	1000 km dan ortiq		
Yevropa	29,1	25,8	30,3	11,9	2,9	329	3.98
Osiyo	27,1	20,2	21,9	19,9	10,9	756	4,16
Afrika	18,1	27,0	18,6	23,5	12,8	664	1,71
Sh. Amerika	31,5	19,8	20,1	18,5	10,1	384	5,49
J. Amerika	24,5	38,4	27,9	9,0	0,3	540	1,87
Avstrliya va Okeaniya	79,1	15,2	4,9	0,8	-	-	1,50
Butun quruqlik (Antarktida va Grenlandiyadan tashqari)	27,5	22,7	23,5	17,7	-	572	

Bundan kor'inib turibdiki, aholining bu kabi notekis joylashishi dastavval ekologik muommolarni keltirib chiqaradi. Aholisi zich joylashgan hududlarda ekologik vaziyat tubdan o'zgaradi. Buni biz mamlakatlar misolida ko'rib chiqamiz. Dunyo mamlakatlarini aholi zichligiga ko'ra 3 ta guruhga ajratish mumkin.

Yuqori darajadagi zichlik. Aholida mamlakatlar uchun 1 km kvadratga 200 kishidan ortiq ko'rsatkichni eng yuqori zichlik deb olishimiz mumkin. Masalan: Belgiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Isroil, Livan, Bangladesh, Shri-lanka, Koreya Respublikasi, Ruanda, Salvador.

O'rta darajadagi zichlik. Dunyo bo'yicha o'rtacha zichlikka yaqin bo'lgan ko'rsatkichni 1 km kvadrat yuzaga 40 kishi deb olamiz. Bularga Irlandiya, Iroq, Kambodja, Malayziya, Marokash, Tunis, Meksika, Ekvador.

Nihoyat pastki darajadagi zichlik, 1 km kvadrat yuzaga 2 kishidan to'g'ri kelishini ko'rsatish mumkin. Bu guruhdagi davlatlarga Mo'g'iliston, Liviya, Latviya, Litva, Mavritaniya, Namibiya, Gviyana, Avstraliya shuningdek Grenlandiya orolini (1 km kvadrat yuzaga 0.02 kishi) misol qilish mumkin.

Aholining bu kabi hududiy joylashuvi o'rtasidagi tafovutlar bir qancha ekologik muommolarni keltirib chiqaradi. Aholi zich joylashgan hududlarda atrof-muhitning ifloslanish muoammosi yetakchilik qilsa, aholi yashamaydigan cho'l zonalarida cho'llashish muammosi yetakchilik qiladi. Shu o'rinda aholining hududiy joylashuvi bilan bog'liq bo'lgan yirik ekologik muammolar va ularning yechimi to'g'risida to'htalib o'tish maqsadga muvofiq.

Insonning xo'jalik faoliyati natijasida dunyoda yirik ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Ular quydagilar: "issiqxona samarasi", "ozon tuynugi", "cho'llanish"

"Issiqxona samarasi" dunyo bo'yicha 20-asrning 50-yillaridan boshlab, energiya ishlab chiqarishning keskin ortishi munosabati bilan atmosferaga katta miqdorda chiqindilar chiqarila boshlandi. Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga 5 mld tonnani tashkil qiladi. Bu miqdor yil sayin orta boshladi. Bu esa yerdagi o'rtacha harorat 1890-yildagi 14.5 grad dan 1980-yilda 15,2 grad ga, ya'ni 0,7 darajaga ortishiga olib keldi. Mazkur ko'rsatkich yil sayin ortib borish

hususiyatiga ega. Bu esa “issiqxona samarasi”ning yuzaga kelishiga sabab bo’lmoqda. Olimlarning fikricha, issiqxona samarasini vujudga keltiruvchi gazlarning ortish surati saqlanib qolsa, har 10 yilda harorat 0,2-0,5 darajaga ortib boradi. Bu esa turli ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Dunyo bo’yicha havo haroratining 1-2 darajaga ko’tarilishi natijasida Yevrosiyoda tundra, o’mon-tundra, tayga, aralash va keng bargli o’rmonlar, o’rmon dash va dasht tabiat zonalarining shimolga siljishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa va Afrika davlatlarining suv oqimi ortadi.

Dunyo bo’yicha havo haroratining ortishi muzliklarning erishi va okean suvlarining issiqlik ta’sirida kengayishiga olib keladi. 20-asr davomida olimlarning hisobi bo’yicha okean sathi 17,5 sm ga ko’tarilgan. Amerika olimlarining bashoratiga ko’ra 2100-yilga kelib dunyo okeani sathi 1,4-2,2 m ga ko’tarilishi mumkin. Bu okean sohillarida joylashgan ko’pchilik davlatlarni suv ostida qolib ketishiga sabab bo’ladi.

“Ozon tuynigi”. 20-asrning 50-yillaridan boshlab, havoda Freon gazlarining (xlor, ftor, uglerod) miqdori ko’payganligi kuzatila boshlandi. Bu gazlar 25 km balandlikda joylashgan ozon qatlamini yemira boshladi. Ma’lumki, ozon qatlami Quyoshdan kelayotgan zarali ultrabinafsha nurlarini tutib qoladi. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida ozon “tuynigi” hosil bo’ldi. Mazkur tuynukdan yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarining kirib kelishi donli ekinlar hosilini keskin kamaytirib yuborishi, odamlarning teri raki kasaliga chalinishlriga sabab bo’lishi aniqlangan.

1989-yil 81 mamlakat olimlari, mutaxassislari hamda Davlat arboblari qabul qilgan “Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasida” 2000-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqariladigan maxsulotlarni kamaytirib boorish tadbirli belgilab berildi. Natijada so’ngi yillarda ozon “tuynugi”ning maydoni qisqarib bormoqda.

Cho’llashish. Hozirgi paytda cho’llashish jarayoni, ya’ni hosildor yerlarning, yaylovlarning cho’lga aylanishi tabiiy va suniy omillar ta’sirida sodir bo’lmoqda. Tabiiy omillarga asosan qurg’oqchilik kiradi. Masalan, 1968-74 yillarda Sahroi Kabirning sohil mintaqasida falokatli qurg’oqchilik mintaqasida falokatli

qurg'oqchilik oqibatida Chad ko'li maydoning 60 foizdan ortig'i, Niger, Senegal daryolari qurib qoldi, namlik yetishmasligi natijasida yaylovlarning mahsuldorligi keskin kamaydi, cho'l 100-150 km ga savannaga bostirib kirdi.

Insonning yerdan noto'g'ri foydalanishi natijasida katta-katta maydonlarda hosildor yerlar cho'lga aylanmoqda. Hozirgi paytda inson faoliyati ta'sirida 9 mln km kvad maydonda cho'l hosil bo'lgan. Har yili tahminan 21 mln ga yer to'liq buzilib, cho'lga aylanmoqda. Har yili sug'orilayotgan yerlarning 6 mln ga cho'ga aylanadi. Hozirgi paytda cho'llashishning oldini olish bo'yicha muntazam ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Keniya davlatining poytaxti Nayrobida cho'llashishga qarshi kurashni muvofiqlashtiruvchi faoliyat ko'rsatib turibdi.

Bu kabi aholining hududiy joylashuvi bilan bog'liq muammolar doim mavjud bo'lib, buning oldini olish uchun bugungi kunda jahon miqyosida turli hil amaliy ishlar qilinmoqda.

3.2 Dunyodagi demografik jarayonlar va muommolar

Dunyoda demografik jarayonlar haqida soʻz ketganda avvalo koʻz oldimizga aholining tugʻilish va oʻlim koʻrsatkichlari, migratsiyasi va shu kabi turli xil koʻrsatkichlar keladi. Demografik jarayonlarni tahlil qilishda quydagi koʻrsatkichlarga alohida toʻhtalib oʻtish maʼqul.

Ayni vaqtda dunyo aholisi oʻsishining 3 tipi ajratiladi. Bunday oʻsish tiplari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari asosida bir-biriga oʻtib boradi. Oʻtish tiplarining regional boʻlinishi quydagicha:

(9-jadval)

Aholi oʻsishining tiplari	Koʻrsatkichlar			Regionlar
	Tugʻilish	Oʻlim	Tabiiy koʻpayish	
Anaʼnaviy	Juda yuqori	Yuqori	Juda yuqori	Afrika
Oraliq	Yuqori	past	yuqori	Lotin Amerikasi, Osiyo, Avstraliya va okeanya
Zamonaviy	Juda past	Past	Juda past	Yevropa, AQSh, Kanada

Jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari asosan aholining oʻsish tiplari anʼaviydan zamonaviyga qarab oʻzgaradi. Bunday oʻsish xozirgi vaqtda baʼzi millatlarning qarishi va yoʻqolishiga olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarish munosabatlariga bogʻliq holda aholi sonining tabiiy oʻsishi yuqori yoki past boʻladi. Afrikada aholi sonining oʻsishi yillik 3 % ni tashkil qilsa, yevropada bu koʻrsatkich 0,2 % dan ham pastdir. Demografik oʻtish konsepsiyasi bosqichlarining almashinib kelishi va uning hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida notekis kechayotganligi dunyo mamlakatlarida aholi tabiiy koʻpayishining ikki turini hosil qildi. Bu tugʻilish va oʻlim oʻrtasidagi farqqa nisbatan qoʻllaniladigan

demografik tushunchalar bo'lib, tabiiy o'sish har ming kishiga nisbatan 12 kishidan kam bo'lsa, aholi demografik tanglik, agar tabiiy o'sish har 1000 kishiga 12 kishi va undan yuqori bo'lsa aholi demografik faollik holatida deb tushuniladi. Shunga ko'ra demografik vaziyatni aholi takror barpo bo'lishi nuqtai-nazardan tavsiflaganda tug'ilish va o'limning, binobarin tabiiy o'sishning past yoki stabil darajada ekanligi nazarda tutilib "Demografik qish " iborasi qo'llaniladi. Tug'ilishning yuqori darajasi va o'limning past darajasi, tabiiy o'sishning yuqori darajasi kuzatilganda "demografik bahor" iborasi qo'llaniladi. Anashu ikkinchi ibora demografik portlash iborasini beradi. Aholi takror barpo bo'lishining birinchi tipi uchun depopulatsiya harakterlidir. Bunday hollarda Davlat tug'ilishini ko'paytirish choralarini ko'radi.

"Demografik portlash" iborasi 20-asrning 70-yillarida keng qo'llanilga boshlandi. Xitoy, Hindiston, janubiy-sharqiy osiyo mamlakatlari va ba'zi Afrika mamlakatlarida tug'ilish jarayonining nihoyatda yuqoriligi kuzatildi. Ikkinchi jahonurushidan keyin ko'plab davlatlar mustaqillikga erishib, xalqaro tashkilotlar ko'magida o'z aholisining hayot darajasini ko'tarish chora-tadbirlarini ko'rdilar. Bolalar o'limi keskin kamaydi, kishilar yashash muhitidagi sanitariya yaxshilandi. Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlari hukumatlari BMT ning maorif, ilm-fan va madaniyat masalalari bo'yicha qo'mitasi YUNESKO rivojlanayotgan mamlakatlada bolalarni o'qitish tizimini yaratishga erishdi. Bu tadbirlarning hammasi aholi o'limiga sabab bo'luvchi omillar ta'sirini kamaytirdi. Demografik portlash kishilik jamiyatining yutuqlari evaziga sodir bo'ldi va bunday hodisa yuz bergan mamlakatlarda yangi muommolarni keltirib chiqardi. Endilikda bu mamlakatlar aholisining rivojlanishini tartibga solish tadbirlarini o'tkazmoqda. Bu kabi tadbirlarni bir so'z bilan demografik siyosat deb atashimiz mumkin. Demografik siyosat ya'ni hukumatning tug'ilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi zarur ekanligi. Dunyoning barcha mamlakatlarida – demografik vaziyat va aholining ko'payish darajasi qanday ekanligidan qati'y nazar tan olingan. Demografik siyosatning asosiy maqsadi ayni vaqtda mamlakatda mavjud demografik jarayonlarni o'zgartirish yoki qo'llashdir.

Demografik vaziyatga bog'liq holda demografik siyosatning ikki tipi mavjud;

1. Tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan (bu asosan rivojlangan mamlakatlarga hos)

2. tug'ilishni pasytirishga qaratilgan (rivojlanayotgan mamlakatlarga hos)

Demografik siyosatni amalgam oshirish ko'p hollarda ahloqiy-ma'naviy shuningdek moliyaviy yetishmovchilik kabi qiyinchiliklarga duch keladi.

1953-yilda oilani rejalashtirish Xalqaro Federatsiyasi tashkil etildi. Oilani rejalashtirish dasturlari ishlab chiqilib, tug'ilishni kamaytirishga qaratilgan turli choralar qo'llanila boshlandi. Demografik siyosat 3 uslubda o'tkaziladi:

1. Iqtisodiy

2. Ma'muriy – xuquqiy

3. ijtimoiy-psixologik

Iqtisodiy uslub asosan tug'ilish darajasi pasayib ketgan aholi takror barpo bo'lishi aholi ko'payishini ta'minlay olmagan paytlarda qo'llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador, yosh bolali va ko'p bolalai ayollarga turli imtiyozlar beriladi, ko'p farzandli onalarga iqtisodiy yordam ko'rsatiladi. Shuningdek turli iqtisodiy rag'batlantirish usullari qo'llaniladi. Ma'muriy-xuquqiy uslub tug'ilishni ko'paytirish yoki kamaytirishga nisbatan birday qo'llanilishi mumkin. Masalan abortni man etish yoki nikox yoshini ko'tarish, bolalar sonini cheklash, oilaviy munosabatlarda tomonlar xuquqlarini qonun nazoratiga olish va h.

Ijtimoiy-psixologik usul aholini demografik tarbiyalash deb ham ataladi. Bunda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida oila va farzandga bo'lgan munosabatlar targ'ib etiladi. Ommaviy axborot vositalari orqali aholining demografik mayliga ta'sir ko'rsatish mumkin.

Dunyo mamlakatlarida demografik siyosat turlicha natijalarga erishmoqda. Masalan: Xitoyda "bir oilaga bir bola" shiori ostida o'tkazilayotgan demografik siyosat qat'iy ma'muriy choralar qo'llash usuli bilan o'tkazilgani uchun yaxshi natijalarga erishildi. Natijada Xitoyda tug'ilish darajasining o'rtachasi solish

muvaqqiyatsizlikka uchraganligi uchun uning aholisi to'htovsiz ko'payib bormoqda. Ayni vaqtda uning aholisi 1.3 mld dan oshib ketdi

Demografik jarayonlarni tahlil qilish orqali demograf olimlar berilgan ma'lumotlarga asoslanib kelajak haqida demografik bashorat qiladi. Demografik bashorat ma'lum hudud aholisining soni, tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash tushuniladi. Demografik bashorat bashorat etilayotgan davriga qarab qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli bo'ladi.

Qisqa muddatli demografik bashorat 5 yilga mo'ljallangan bo'lib, unda aniqlik darajasi yuqori bo'ladi.

O'rta muddatli demografik bashoratlar 30 yilgacha bo'lgan davr uchun hisobga olinadi. Bu bashoratlarda aholining tug'ilish va o'lim jarayonlari, aholi migratsiyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ilmiy asosda o'rganiladi va bashorat tuzishda hisobga olinadi.

Uzoq muddatli demografik bashoratlar 30-60 yilga mo'ljallanadi. Bunday bashoratlar aholi tug'ilishi va o'limining kelajakdagi o'zgarishlari haqidagi gipotezalarga asoslanadi.

Regionlar bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar va bashoratlar

1995-2015 yillar

(Kvasha A. Y, Iyontseva V.A bo'yicha)

(10 - jadval)

Regionlar	Aholi soni (mln)	O'rtacha umr davri	Shahar aholisi hisobida %	Yosh guruhlarining axoli sonidagi ulushi %	
				15 yoshgacha	65 yosh va undan katta
Dunyo bo'yicha 1995	5759	64,7	45,2	31,9	6,5

2015	7609	70,2	55,6	27,1	7,8
Rivojlangan davlatlar					
1995	1224	74,6	74,2	20,9	12,9
2015	1366	77,5	80,8	19,,5	15,4
Rivojlanayotgan davlatlar					
1995	4515	62,4	37,2	34,9	4,8
2015	6242	68,6	50,1	28,9	6,2
Afrika					
1995	744	53,0	34,2	44,8	3,1
2015	1265	61,1	47,6	40,0	3,3
Lotin Amerikasi					
1995	482	68,0	74,2	33,8	5,1
2015	637	72,0	81,8	26,4	7,1
Shimoliy Amerika					
1995	292	76,4	76,4	21,8	12,6
2015	341	78,8	82,2	19,0	14,4
Osiyo					
1995	3408	64,8	31,2	32,2	5,4
2015	4461	71,1	47,3	25,5	7,3
Yevropa					
1995	516	75,2	75,0	19,0	14,1
2015	540	78,0	81,6	18,2	16,8

Ma'lumki insoniyat hayotidagi urushlar ham demografik jarayonlarga ta'sir etmay qolmaydi. Shu sababli urushlarning demografik jarayonlarga ta'sirini atroflicha ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Urushlarning demografik oqibatlari jumlasiga jangchilar va fuqaro aholining bevosita urushdan halok bo'lishidan tashqari, uning bevosita oqibatlarini ham kiritish zarur. Chunonchi, urush yillarida tug'ilishning keskin kamayib ketishi

aholi sog'ligining yomonlashuvi natijasida urush tugagandan keyin ham bir necha yillar davomida o'limning yuqori bo'lishi, aholi yoshi va jinsiy tarkibining buzilishi va boshqalar shunday oqibatlardandir.

Urushlarning bevosita va bilvosita demografik ta'sirini ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Polshaga ta'luqli quyidagi ma'lumotlardan aniq ko'rish mumkin.

Yuqorida aholining takror barpo qilinishi jarayonini asosiylari bilan tanishib chiqdik.

Aholining tabiiy o'sishi ma'lum bir muddatda tug'ilganlar sonidan o'lganlar sonini olib tashlangan qoldiq bilan belgilanadi. Aholining tabiiy o'sishi ko'rsatkichlarini har 1000 kishiga nisbatan hisoblanadi.

Hozirgi paytda Yer shari aholisiga har yili 80-85 mln kishi qo'shilmoqda yoki yiliga 2 % o'smoqda. Dunyo aholisining bunday tez o'sishi hech qachon kuzatilmagan emas. Hozirgi paytda dunyo aholisi yillik tabiiy o'sishining 80 % rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez tabiiy ko'payishi va buning hisobiga butun yer shari aholisi o'sish sur'atlarining tezlashganligi ayrim olimlar uchun bu jarayonni "Demografik portlash" deb atashga asos bo'lmoqda. Bu jarayon natijasida ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tabiiy o'sishi bilan u mamlakatlar iqtisodiyotining erishilgan taraqqiyot darajasi o'rtasida nomuvofiqliklar vujudga kelayotganligi ham sir emas. Tug'ilishning ham o'limning ham kamligi bu mamlakatlarda aholi tabiiy o'sishining kamligini belgilaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining juda tez o'sayotganligi muhim iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelmoqda va dunyo demograflari tomonidan qiziqib o'rganilmoqda. Shunday qilib rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining hozirgi tabiiy o'sishi harakteri juda ko'p tug'ilishga nisbatan ham o'lish va yuqori tabiiy o'sish bilan belgilanadi. Aholining takror barpo qilinish jarayonining ko'pgina xususiyatlariga ko'ra bu mamlakatlarning yana bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Mamlakatimiz aholisiga keyingi yillarda tabiiy o'sish hisobiga har yili 2,6-2,7 mln kishi qo'shilmoqda.

O'zbekistonda aholining tabiiy o'sishi asosan mahalliy millatlar orasida yuqori. Aholining yillik o'sish sur'ati esa 2 % ga teng bo'lmoqda.

Osiyo aholisining soni esa, doimiy ravishda o'sib bormoqda. Ammo ayrim davrlarda uning dunyo aholisidagi salmog'i ancha pasayib ketganligini ko'rish mumkin.

Shunday qilib, dunyo aholisining o'sish dinamikasi ko'plab va xilma xil faktorlar ta'sirida bo'ladi.

Dunyo aholisining o'sishi va bu o'sishning sur'atlari yuqorida aytilganidek davom etsa, 21-asr o'rtalarga borganda, dunyo aholisi 9 mlrd kishiga, 21-asr oxirlarida esa 11-12 mlrd kishiga yetadi.

Umuman dunyo aholisining o'sish sur'atlari kelajakda pasayib boradi. Bu tendensiya hoziroq sezila boshladi, ma'lum bir davrga kelib esa, sayyormiz aholisining soni stabillashadi.

Aholining yoshi va jinsiy tarkibini o'rganish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega. Butun mamlakat va uning ayrim rayonlari aholisining yoshi va jinsiy tarkibini aniq bilish mehnat resurslarining sonini hisoblab chiqishga, uning hozirgi soninigina emas, balki kelajakda qanday o'sishni ham aniq bilib olishga, shuningdek maktabgacha tarbiya muassasalariga, maktabning birinchi sinfiga boradigan bolalar sonini bilish, shunga ko'ra tegishli rejalashtirish ishlarini oldindan olib borishga imkon beradi.

Aholining jinsiy tarkibiga kelganda shuni aytish kerakki, umuman yer shari bo'yicha yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida o'g'il bolalarning soni qiz bolalarga nisbatan bir oz ko'proq bo'ladi. Yuqorida qayd etib o'tiganidek, yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida o'g'il bolalarning qiz bolalarga nisbatan bir oz ko'proqligi 15-20 yoshlargacha saqlanadi.

Aholining yosh tarkibiga, uning tabiiy ko'payishiga, migratsiyasiga urushlar katta ta'sir qiladi. Aholisining yosh guruhlari nisbatan qarab, dunyo mamlakatlarini ikkita asosiy tipga bo'lish mumkin.

Aholining yoshi va jinsiy tarkibiga urushlarning bevosita va bilvosita ta'sirini aholining yoshi va jinsiy tarkibi bo'yicha berilgan piramidada yaqqol ko'rish mumkin.

Dunyodagi demografik muammolarga bog'lagan holda energetika, homashyo va oziq-ovqat muammosiga ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda energetika va xomashyo muammosi iqtisodiyot va ishlab chiqarirish bilan bog'liq bo'lgan eng dolzarb muammolardan biridir. Mazkur muammolarning kun tartibiga birinchi bor chiqishi 20-asrning 70-yillarida qayd etildi. 1973-1998 va 2007-yillarda yuz bergan energetika inqirozi va uning oqibatlari hozirgi kungacha sezilmoqda.

Global oziq-ovqat muammosi insoniyatning eng qadimgi muammolaridan biri sanaladi. Ocharchilik qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham insonlarning boshiga tushuvchi eng katta kulfatlardan biri. Ocharchilik ikki xil shaklda namoyon bo'ladi. Birinchi shaklda ocharchilik surunkali davom etadi. Uning natijasida odamlarning sog'ligi yomonlashadi, tinkasi quriydi va har xil kasalliklarga chalinish ehtimoli kuchayadi. Ocharchilikning bu shakli "to'yib ovqat yemaslik" deb ham ataladi. Ikkinchi shaklida ma'lum bir vaqtda yer yuzasining ma'lum bir hududida qurg'oqchilik yoki boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lgan ocharchilik oqibatida millionlab insonlar halok bo'ladilar. FAO (Xalqaro oziq-ovqat bilan ta'minlash tashkiloti), xalqaro sog'liqni saqlash va boshqa tashkilotlarning ma'lumotiga ko'ra insonning bir kunlik oziq- ovqat normasi 2400-2500 kkal dan kam bo'lmasligi kerak. Ba'zi bir mualliflar ushbu ko'rsatkich 2700-2800 kkalga teng bo'lishi lozim deb hisoblamodalar. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich insonlarning yoshi, jinsi, mehnat faoliyati, kasb-kori, tabiiy-iqlimiy sharoitlari bilan aloqador tarzda o'zgarishi mumkin. "Ovqatni to'yib yemaslik" holati yuqoridagi norma 1800 kkal dan pastga tushganda sezila boshlaydi, ocharchilik esa ushbu ko'rsatkich 1000 kkal dan kam bo'lganda kuzatiladi.

FAO ning ma'lumotiga ko'ra, yer yuzida jami aholining 35 % to'yib ovqatlanagan, 15 % zaruriy miqdordagi kaloriyani qabul qilgan, lekin oqsilni yetarli tarzda iste'mol qilmagan. Aholining 20 % ini oqsilga bo'lgan talabi qondirilmagan,

30 % i surunkasiga ovqatni to'yib yemagan yoki och qolgan . Hozirgi vaqtda ocharchilik 700-800 million kishini qamrab olgan. 1,2-1,5 mld. kishi esa to'yib ovqat yemayapti. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ocharchilikdan yiliga 13 mln. dan 18 mln. gacha odam o'lmoqda, shulardan $\frac{3}{4}$ qismini bolalar tashkil etmoqda. Hozirgi kunda ocharchilikga mahkum bo'lgan jami aholidan 200 mln kishi Afrikaga, 370 mln kishi janubiy va janubiy-sharqiy Osiyoga, 70 mln kishi Janubiy Amerikaga, 30 mln kishi yaqin va o'rta sharq regioniga to'g'ri keladi.

Yuqoridagi muammolarni hatto juda katta miqdordagi oziq-ovqat yordamini ko'rsatish bilan ham hal etib bo'lmaydi. Buning uchun rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy qoloqlikdan chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish zarur.

XULOSA

Ma'lumki aholi muayyan hududda yoki butun yer yuzida yashovchi insonlar majmui hisoblanadi. Manashu aholini xalqlar nuqtaiy nazardan o'rganib, mavzu yuzasidan izlanishlar olib borib quydagi umumiy xulosalarga keldim.

Bugungi kunda yer yuzida ikki mingdan ortiq xalqlar mavjud bo'lib, ular geografik joylashuviga ko'ra turli xil o'ziga xos geografik manzara hosil qiladi. Yer yuzida insoniyat paydo bo'lganiga 3 mln yildan oshdi. Manashu uzoq vaqt ichida insoniyat etnik birlikning asosiy bosqichlaridan o'tib alohida xalq sifatida shakllandi. Xozirda aholisining soni bo'yicha eng yirik xalq xitoy xalqi bo'lsa eng kichigi tasaday xalqi hisoblanadi. Xalqlarning rivojlanishi tarixiy-ijtimoiy hodisadir. Har bir xalq o'z shakllanish tarixida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Etnik jarayonlar turli xalqlarning tarixida alohida o'rin egallaydi. Masalan: o'zbek millatining shakllanish tarixini ayni bir davrdan boshlab bo'lmaydi. Chunki hozirgi O'zbekiston hududida ming yillar davomida til, turmush tarzi, urf-odati va hatto dini jixatdan farq qiluvchi etnoslar va qabilalarning assimlatsiya jarayoni kechgan. Turli bosqinchilik urushlari buni tezlashtirdi va rang-baranglik baxsh etdi. Bu jarayonda qadimgi davrda saklar, massagetlar, so'g'dlar, yunon-makedoniyaliklar, eron xalqlari, o'rta asrlarda qoraxitoylar, arablar, qipchoqlar va mo'g'ullar faol qatnashganlar.

Xalqlarning tarkibiy tuzilmalari BMI ning 2-bobida keng yoritilgan bo'lib, xulosa o'rnida tarkibiy tuzilmalarga jinsiy, yosh, diniy, irqiy, mehnat resurslar tarkibi kabilarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Aholining tarkibiy tuzilmalari ichida aholining irqiy tarkibini qisqacha qilib quydagicha xulosalash mumkin.

Antropologik jihatdan hozirgi xalqlar so'nggi ilmiy klassifikatsiya asosida to'rt katta irqqa bo'linadi:

- negroid (afrikan),
- Yevropoid (evroosiyo),
- mongoloid (osiyo-amerika) va
- avstraloid (okeaniya) katta irqdari;

Negroidlarning soni o'tgan asr so'ngidagi ma'lumotlari bo'yicha butun dunyoda 250 milliondan ortiq (negrlar, negrilli, bushmen va gottenotlar); negroid va Yevropoid irqalarining aralashishidan paydo bo'lgan 352,6 millionli irqalar efioptipi, sudanliklar, mulatlar) ham shularga kiradi; eng katta Evropoid (evroosiyo) irqi 1 milliard 793,3 million kishidan iborat bo'lib, unga aralash tiplari (metislar, mulatlar) ham kiradi; mongoloid (osiyo-amerika) katta irqiga oid aholi soni 704 milliondan ortiq; aralash tiplari 672,2 million, tinch okean mongoloidlari 664 million kishi, Janubiy Osiyo guruhi 542,4million va yaponlar tipi 11 million kishidan iborat; avstraloid (okeaniya) katta irqi (veddoidlar, avstraliyaliklar, aynlar, melaneziyaliklar va papuaslar) soni 9,4 million kishini tashkil qiladi. Irqiy tafovut faqat tashqi jismoniy belgilari bilan aniqlanadi. Har bir katta irq ichida mayda guruh va tiplari ham mavjud. Etnoslarning shakllanishida va ularni farqlashda til asosiy rol o'ynaydi. Til birligiga qarab ayrim xalq va elatlar aniqlanibgina qolmay, ko'pincha til asosida nom ham beriladi. Lingvistik xarakteristika tarixiy-qiyosiy o'rganish orqali aniqlanadi. Odatda kelib chiqishi bir bo'lgan xalqlardan til yaqinligi bo'ladi. Shu asosda eng katta til oilalari va guruhlar quyidagicha bo'linadi: hind-Evropa oilasida 1 mlrd. 861 million kishi gapiradi, shulardan eng katta guruhlar — germanlar (403,9 million), romanlar (482 million), hindiyalar (595,6 million), slavyanlar (271 million), eroniyalar (65 million) semit-xamit (afroosiyo) oilasida 147,9 million kishi semit xalqlari; dravid oilasi 154,1 million kishidan iborat; Ural oilasiga 23,4 million, oltoy oilasiga 96,9 million, xitoy-tibet oilasiga 864,7 million, Nigero-kordofa oilasiga 212,6 million, avstroneziya oilasiga 191,3 million, avstroosiyo oilasiga 64,5 million kishi kiradi. Tillar morfologik (so'z tuzilishi) va geneologik (kelib chiqishi) yaqinligi asosida farqlanadilar. Geneologik klassifikatsiya etnologiya fani uchun muhim ahamiyatga ega, chunki xalqlarning kelib chiqishi (et-nogenezi)ni o'rganishda katta yordam beradi.

BMI ning 3- bobi xalqlarning hududiy joylashuvi va tarkibiga ta'sir etuvchi omillar hususida baxs qiladi. Bundan tashqari xalqlarning hududiy joylashuvi bilan

bog'liq bo'lgan dunyodagi demografik jarayonlar va muomolar tog'risida gap boradi. Aholi zich yashaydigan hududlarda ekologik muammoni shartli ravishda uch tarkibiy qismga bo'lish mumkin;

- 1) Ilmiy asalanmagan, betartib tarzda tabiatdan foydalanish oqibatida atrof-muhitning degradatsiyalanishi;
- 2) Atrof-muhitning inson faoliyati chiqindilari bilan ifloslanishi;
- 3) Atrof-muhitning ushbu chiqindilar bilan "zaharlanishi"ga bo'lish mumkin.

Dunyodagi turli xil demografik jarayonlar bir qancha demografik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Demografik muammo global muammolarning eng muhimi hisoblanadi. Ushbu muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori darajada tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan, rivojlangan mamlakatlarda esa juda past darajada tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan bog'langan. Buning oqibatida birinchi guruh mamlakatlarda aholi va mehnat resurslari soni tez o'smoqda, ikkinchi guruh mamlakatlarda esa aholi va mehnat resurslari soni past suratlarda o'smoqdaki, ular murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda bu kabi demografik muammolar xalqlarning hududiy notekis joylashganligi va boshqa sabablarga bog'liqdir

Demak, nihoyatda xilma-xil va rang-barang, katta va kichik turli etnoslar jahonda mavjud. Ular o'zlarining tabiiy geografik sharoiti, tarixiy shakllanib kelgan til va milliy xususiyatlari, joylashishi va turar joylari, milliy arxitektura va uy-ro'zg'or buyumlari, taomlari va iste'mol usullari, turmush tarzi va urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi va san'at namunalari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ammo bir sayyorada yashovchi barcha elat va xalqlar yagona insoniyatni tashkil qiladi.